

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

Mavzu: XI-XIV ASRLARDA SIFAT SO'Z TURKUMI

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajardi: Rahmatullayeva O.

Ilmiy rahbar: dots.Usmonov Q.

Malakaviy bitiruv ishi o'zbek tilshunosligi kafedrasida bajarildi.

Kafedraning 2011–yil 20-maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnomasi №____)

Kafedra mudiri:

prof.A.Abdusaidov

Malaviy bitiriv ishi YaDAKning 2011-yil ----- iyundagi majlisidahimoya qilindi va ----- foizga baholandi (bayonnoma № ____)

YaDAK raisi:

A'zolari:

SAMARQAND - 2011

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizning istiqbolga erishishi ona tilimiz mavqyeini oshirish bilan birga "o'zbek tili hodisalarini rus tili qoliplariga solib tushuntirish" [54, 5] zaruriyatidan qutqazdi. Milliy madaniyat va milliy til o'rtasidagi munosabatni alohida ta'kidlab, Prezidentimiz shunday deb yozgan edi: "Xalqimiz milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo'lmish tilni rivojlantirish, bu tilning davlat maqomini izchil va to'liq ro'yobga chiqarish davlat ahamiyatiga molik" [1,19].

XX asrning 80-yillaridan boshlab o'zbek tilshunosligida so'z turkumlari tasnifiga dialektik mantiq nuqtai nazaridan qarash (hodisaga substansial yondashuv), uni xilma-xil sifat va belgi-xususiyatlar majmui sifatida belgilash va talqin etish ommalashib, so'z serqirra hodisa sifatida qarala boshlandi. Bu esa so'zlarni turkumga ajratishning mantiqiy lisoniy mezonlarini aniqlash, so'z turkumlari munosabatidagi o'ziga xosliklarni kuzatish imkonini berish bilan birga so'zlarni muayyan belgilari asosida izchil tasniflash, istalgan so'zni ma'lum turlarga zidsiyatsiz ajratishda qulaylik yaratdi.

O'tgan asrning 90-yillari oxirlarigacha o'zbek tilshunosligida tabiati o'ta ziddiyatli talqin etilgan turkum ravish bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Manbalarda ravish o'zgarmas mustaqil ma'noli so'z deb ko'rsatilsa-da, ko'plab o'zgaruvchan so'zlarning bu guruh tarkibida uchrashi mazkur turkum chegarasini kengaytirib yubordi. Ravishda o'ziga xos murakkablik uning morfem tarkibi, so'z o'zgarish, so'z yasaliish va semantik-funksional jabhalarida kuzatiladi. Leksik qatlamdagi har qanday holat-

xususiyat, o'rin-makon, payt, miqdor ma'noli so'zlarga ravish deb qarash mazkur turkumni sun'iy ravishda murakkab grammatik kategoriya darajasiga chiqarib qo'yishimizga sabab bo'ldi. Qolaversa, ko'pgina tadqiqotlarda ravishlarni guruhlashda sof semantik, aniqrog'i, tarjima usulidan foydalanish ham bu guruhning o'zgarmaslik mezoniga soya solib keldi.

Tilshunosligimizda mazkur turkumga aloqador o'zgarmas so'z va o'zgarmas pozisiya (mavqye), ravishga analogiya ta'siri, qo'shimchalarning pleonastik, okkazional qo'llanish, ravishning tuzilish turlari sodda (sodda tub, sodda tublashgan, soddalashgan, ixtisoslashgan), qo'shma (leksemalashgan ravishlar), juft, takroriy ravishlar va so'z (ravish)ning morfem tarkibida bo'ladigan o'zgarishlar bilan bog'liq tekshirilishi kerak bo'lgan muammolar anchagina.

Ravishning semantik-funksional imkoniyatlari, boshqa turkum so'zlari bilan munosabati natijasi o'laroq bu guruhning kengayib turishi, xususan, ravishlarning boshqa turkum (ot, sifat)ga o'tish hodisasi fanimizda hozirgacha tadqiq obyekta bo'lgan emas.

Ravishni boshqa so'z turkumlaridan farqlovchi belgi qanaqa? Ravishning morfologik o'zgarish hamda yasalishga munosabati qay darajada? Ravishning so'z turkumlari tizimidagi mavqyei, yondosh turkumlarning ravishga hamda ravishning bu turkumlarga ta'siri qanday? Bu kabi yechimtalab muammolar tanlangan mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. O'zbek tilining grammatik qurilishini Yevropa tilshunosligi ilmiy mezonlari asosida o'rganish boshlanishi bilan (XIX asr oxiri XX asr boshlarida) o'zbek tilida so'z turkumlari borasida zamonaviy qarashlar shakllana bordi. Bu borada rus turkiyshunoslari A.V.Starchevskiy, L.Afanasyev, T.Kiyasbekovning xizmatlari katta bo'ldi [13]. Yuqorida nomi zikr etilgan va boshqa turkiyshunoslarning o'tgan asr boshlaridagi tadqiqotlarida ravishning semantik va grammatik tabiati

birmuncha sodda, asosan amaliy maqsadni, ya'ni rusiyzabonlarga rus tilidagi "narechiye"larning o'zbek tilidagi muqobilini berish maqsadi ko'zlanib ish tutilgan edi.

Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilida ravish va u bilan bog'liq ilmiy-nazariy masalalar, xususan, ravishlarning tuzilishi va tarkibi V.V.Radlov, N.A.Baskakov, G.I.Ramstedt, N.K.Dmitriyev, V.Kotvich kabi olimlarning ishlarida tadqiq etilgan [15;16;27;42;77;78]. Bu tadqiqotlar natijasi E.V.Sevortyanning ikki jildli monografiyasida, A.N.Kononovning o'zbek va turk tili bo'yicha fundamental grammatikalarida, A.M.Shcherbak ishlarida umumlashtirilgan [39; 40; 90; 91; 118].

O'tgan asrning 50- yillarida o'zbek tilshunosligida ravish bo'yicha o'z davri uchun mukammal tadqiqot ustoz til shu nos S.Fuzailov tomonidan amalga oshirildi [108]. Keyingi davr o'zbek tili grammatikasiga oid barcha asarlarda ravish mavzusini yoritishda S.Fuzailov tadqiqoti asos qilib olindi.

Yangi asr bo'sag'asida ravish bilan bog'liq muammolarni hal etishga oid qarashlar A.Hojiyev, J.Eltazarov, D.Sayidtraximovanning ishlarida kuzatiladi. [85; 123; 144]. Mazkur tadqiqotlarda ravish murakkab grammatik kategoriya sifatida qaralib, ravishning yasalishi, darajalanishga munosabati haqida ayrim fikrlar aytilgan.

Tadqiqot manbai. Hozirgi o'zbek tili ("O'zbek tilining izohli lug'ati" [125]) qomusida qayd etilgan so'zlar majmuasiga, shuningdek, faktik til materialli sifatida hozirgi o'zbek adiblarining asarlariga, o'zni bilan davriy matbuot tiliga ham murojaat qilindi.

Dissertasiyaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Tadqiqot Buxoro davlat universiteta o'zbek tilshunosligi kafedrasida ilmiy mavzusining tarkibiy qismi bo'lib, o'zbek filologiyasi fakulteta va universitet ilmiy rejalariga kiritilgan.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi boshqa yondosh turkumlar tizimida ravishning o'rnini belgilash hamda mazkur turkumning lingvistik tabiatini muayyanlashtirishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish quyidagi vazifalarni hal qilish bilan bog'liq ravishda kechadi:

- so'z turkumlarini ajratishning mantiqiy-lisoniy mezonlarini belgilash; tilshunoslikda ravish turkumi tasnifiga asos bo'luvchi mezonlarga munosabat bildirish;

- o'zgarmaslik omiliga qat'iy rioya qilgan holda ushbu turkumning aniq tabiatini ochish hamda o'zbek tilining lingvistik tabiatiga moye ravish tasnifini berish;

- ravishga analogiyaning ta'siri va undagi okkazional, pleonastik qo'llanishlarni sharhlash;

- ravish tarkibidagi turli-tuman asos va qo'shimchalarning morfem tahlilini amalga oshirish, tublashgan ravishlarni tarkiban izohlash;

- ravishning yasalishga munosabatini belgilash;

- ravishning semantik-funksional guruhlarini, uslubiy qo'llanishini sharhlash;

- mustaqil ma'noli o'zgaruvchan so'zlarning ravishga va aksincha, ravishning ot va sifatga o'tishini kuzatish; ravish va ravish bo'lmagan so'zlarning bir-biriga ta'sir doirasini yoritish.

- UTIL va 1950-2005 yillarda nashr etilgan darelik va qo'llanmalarda ravish sifatida ajratilgan so'zlarning qiyosiy jadvalini tuzish.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar.

1. Ravish semantik va sintaktik jihatdan boshqa mustaqil so'z turkumlariga yaqin bo'lib, lug'aviy va sintaktik munosabat shakllariga ega bo'lmagan mustaqil so'z turkumi sifatida voqyelanadi.

2.Undan ortiq manbalarda ravish sifatida keltirilgan 1200 dan ortiq soʻzning 23 xonada qiyosiy tavsifi shuni koʻrsatdiki, ravish sifatida qayd etilgan koʻpgina soʻzlar bizning mezonimiz asosida ravish tabiatiga mos kelmaydi.

Z.Turli qoʻshimcha shakllarning soʻz asosiga singib, ravish guruhiga jamlanishi keng uchraydi. Bu hol ravishning boshqa turkum soʻzlari bilan uzviy aloqasi natijasidir.

4.Ravishda kuzatiladigan ayrim morfologik oʻzgarishlar analogiya taʼsiri natijasida yuz beradi. Natijada mohiyatan oʻzgarmas soʻzlar (ravishlar) boshqa mustaqil soʻzlar bilan maʼnoviy, vazifaviy umumiyligi asosida ot va sifatga tortilishi bilan yakunlanadi.

5.Ravish murakkab tuzilish turlariga va yasalishga ega. Yasama ravishlarda pleonastik va okkazional qoʻllanishlar keng uchraydi.

6. Ravish holat belgisi, payt, oʻrin, miqdor kabi turli maʼno ifodasi bilan boshqa mustaqil turkum soʻzlariga yaqin turadi, ularning ajrimi faqatgina morfologik tabiatiga koʻra belgilanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Dissertasiyada quyidagicha ilmiy yangiliklar qoʻlga kiritildi:

- soʻz turkumlarini ajratishning mantiqiy mezonlari boʻyicha fikr-mulohazalar bayon etildi;
- ravishlarning turkona lingvistik talqini qiyoslash orqali keng miqyosda ochib berildi;
- ravish mutlaqo oʻzgarmas mustaqil soʻzlar guruhidan iborat ekanligi asoslab berildi;
- mazkur turkum tarkibidagi har xil qoʻshimchali tublashgan (oʻz paradigmasidan uzoqlashgan, tublashayotgan), ixtisoslashgan, birikmashakl tarzida leksemalashgan birliklar izoxdandi;

- ravish yasovchi lisoniy qoliplarning unumli va unumsizligi aniqlanib, tegishli xulosalarga kelindi;
- ravishning semantik-funksional ma'nolari, qo'llanishi atroflicha tahlil etildi;
- so'zlarning ravishga, ravishning ot va sifatga o'tish sabablari asoslab berildi;
- manbalarda ravish sifatida berilgan so'zlarning qiyosiy ko'rsatkichi keltirildi.

Tadqiqotning metodologik asosi va tadqiq usullari. Ishning metodologik asosini dialektik mantiq qonunlari tashkil etadi. Ishda umumiylik va xususiylik, analiz va sintez, qiyoslash, uzvli tahlil, qiyosiy-tarixiy tahlil, morfem hamda statistik tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijasining nazariy va amaliy ahamiyati. Kuzatish natijalari so'z turkumlari, ularni tasniflash mezonlari, so'zning morfemik tarkibida bo'ladigan o'zgarishlar, so'z yasalishi, so'zning semantik tarkibi, so'zlarning bir guruhdan ikkinchi guruhga "o'tishi" bo'yicha muayyan ilmiy hamda amaliy materiallar bera oladi. To'plangan materialdan oliy o'quv yurtlarining filologiya fakulteta talabalari uchun maxsus kurs o'tishda, darslik, qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning sinalishi va natijalarining ommalashtirilishi. Tadqiqot mavzui universitet ilmiy-texnikaviy kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan. Tadqiqot mavzui OAK "Byulleten"ining 2005 yil 1-sonida e'lon qilingan. Dissertasiya BuxDU o'zbek tilshunosligi kafedrasining 2007 yil 18 yanvardagi yig'shshshida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etilgan.

Natijalarning e'lon qilinishi. Ishning asosiy mazmuni bo'yicha universitetning ilmiy anjumanlarida (2001-2006), O'zbek tili doimiy anjumani VII yig'inida, ilmiy-amaliy seminarlarida ma'ruza qilingan.

Tadqiqot xulosalari bo'yicha Respublika ilmiy jurnallarida 5 maqola, 5 tezis chop etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 133 sahifani tashkil etadi. Ish so'ngida tegishli ilova keltirilgan.

I BOB. TILSHUNOSLIKDA SIFATLARNING O'RGANILISHI

Ma'lumki, o'tgan asrning 80-yillaridan boshlab mamlakatimizda o'zbek sistem tilshunosligi shakllanib, asta-sekin taraqqiy eta boshladi. Shunisi e'tiborga molikki, an'anaviy tilshunoslikdan farqli o'laroq, sistem tilshunoslikda til birliklari va nutq birliklari o'zaro farqlanmoqda.¹ Tilga tizim sifatida yondashish, nutqni esa tilning voqye' bo'lishi sifatida qarash bunday tadqiqotlarning mohiyatini tashkil etadi. Biz o'z tadqiqotimizda **leksema** atamasidan foydalanamiz. Til va nutq hodisalari izchillik bilan farqlanayotgan hozirgi kunda tilning eng kichik atov birligi leksema deb nomlanadi. «Leksema jamiyat a'zolari uchun tayyor va takrorlanuvchan bo'lib, ma'no va qurilish yaxlitligiga ega. U nutqda so'zlar shaklida yuzaga chiqadi».²

Tilning imkoniyat sifatida nutqda ro'yobga chiqishi, nutq orqali voqye' bo'lishi - til va nutq dialektik munosabati so'zda - til va nutq birligida amalga oshadi. Aniqrog'i, til nutq orqali, nutq esa til boyligi (materiali) orqali namoyon bo'ladi. Til boyligi esa, asosan, so'zlar dan (leksemalardan) tashkil topadi.

¹ Неъматов Х., Ғуломов А., Қодиров М., Абдураимова М. Она тили, 6-синф учун дарслик. - Тошкент: Ўқитувчи, 2001. 38-43 б.; Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. - Тошкент: Ўқитувчи. 1993. - 32 б.; Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. - Тошкент: Ўқитувчи, 1995. - 128 б.; Мирзаев И.К. Тил ва нутқ ходисаларини ўзаро фарқлаш лозимлиги хақида // СамДУ илмий ахборотномаси, 2003, № 2. - 3-5-б.

² Мадрахимов И. Ўзбек тили лексемаларининг таркибига дойр // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002, № 4. - 29-32-б.

Ma'lumki, so'zning semantik strukturasi bevosita ma'no (semema) bilan boglanadi, chunki semantik tuzilishga ega bo'lmagan ma'noning o'zi yo'q. Har bir ma'no o'z tarkibiga ko'ra boglanadi. U muayyan so'zning mazmun tomonini hosil qilib, tovush asosi - ifoda tomoni bilan

Respublikamiz Prezidenta I.A.Karimov to'g'ri ta'kidlaganidek, «o'tmish ajdodlarimizning madaniy va ma'naviy boyligini chuqur va har tomonlama o'rganishimiz zarur... Buyuk ajdodlarimiz bo'lmish mutafakkirlar, olimlar go'zallik ijodkorlarining biz uchun yangi bo'lgan nomlari va asarlarini milliy ma'naviyatimiz xazinasiga qaytarish muqaddas vazifamizdir».³ Bu fikrlar bevosita o'zbek tilshunosligi tarixi, jumladan, uning grammatik qurilishini, xususan, sifat so'z turkumining o'rganilish tarixini tadqiq etishga ham aloqadordir. Chunki tilning grammatik qurilishiga xos u yoki bu birlik, grammatik kategoriyaning o'rganilish darajasini aniqlash uning bundan keyin yanada chuqurroq o'rganilishi uchun keng imkoniyatlar vujudga keltiradi.

Tildagi so'zlarning ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish kabi guruhlariga bo'linishi ularning so'zlik holati, grammatik xususiyatlari (morfologik belgilari va sintaktik vazifasi) asosida maydonga keladi, ya'ni har bir so'zda leksik-grammatik tomonlarning birligi mavjud bo'ladi. Mana shunday muammolarni o'rganish tilning grammatik qurilishida yuz bergan o'zgarishlarni izchil aniqlash imkonini beradi.

Ma'lumki, tilshunoslikda sifat turkumiga oid so'zlarning o'rganilish tarixi olis davrlarga borib taqaladi. Maxmud Koshg'ariyning «Devonu lugotit

³ Каримов И. Ўзбекистан иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. -Тошкент: Ўзбекистан, 1995. - 269 б.

turk», Mahmud Zamaxshariyning «Muqaddimatul adab», «Asos-ul balog'a», Alisher Navoiyning «Muhokamat-ul lug'atayn» kabi asarlaridayoq sifatlarning belgi ifodalash xususiyati, ularning turli xil tashbehtar va badiiy san'atlarni yuzaga keltirishdagi imkoniyatlari haqida muayyan fikr-mulohazalar mavjud edi.

Turkiyshunoslikda sifat turkumiga oid so'zlarning o'rganilishi o'ziga xos tarixga ega. N.K.Dmitriyev, A.P.Yakubinskiy, L.N.Xaritonov, N.F.Katanov, P.M.Melioranskiy, M.A.Kazembek, A.N.Kononov, A.M.Shcherbak, S.N.Ivanov, P.I.Kuznesov, T.I.Grunin singari turkiyshunos olimlar sifatlarning o'ziga xos grammatik kategoriyalarga ega ekanligi, yasalish va otlashish xususiyati, gai tarkibidagi sintaktik vazifasi haqida muhim fikr-mulohazalarni bildirganlar.⁴

O'tgan asrning 20-yillarida o'zbek tili masalalariga bag'ishlangan M.M.Faxriddinovning «Turkcha qoida» (1913), Elbekning «Bitik yo'llari» (1919), «Yozuv yo'llari» (1921), Shorasul Zunnunning «O'zbekcha qoidalar» (1925), Munavvar Qori, Qayum Ramazon, Shorasul Zunnunning «O'zbekcha til saboqligi» (1925), Ye.D.Polivanovning «Kratkaya grammatika o'zbekskogo yazыka» (1926) kabi bir qator darslik va qo'llanmalari nashr etilgan bo'lib, ularda boshqa so'z turkumlari qatori sifat turkumiga oid so'zlarning grammatik belgilari haqida ham fikrlar bayon qilingan edi.

Madaniyatimiz tarixidagi buyuk siymolardan biri Abdurauf Fitratning ilmiy merosida tilshunoslikka oid asarlar ham salmoqli o'rin egallaydi. Shunisi diqqatga sazovorki, Fitrat birinchilardan bo'lib o'zbek tili grammatikasini yaratishga kirishgan olim edi. Uning «Sarf» (1925-1930) asarida o'zbek tili morfologiyasi, jumladan, sifat so'z turkumi haqida bahs

⁴ Фазылов Э.И., Чичулина Л.Г. Русские тюркологи и ўзбекское языкознание. - Ташкент: Фан, 1979. - 216 с.

yuritiladi. Bu asarda sifatlar dastlab tub va yasamalik darajasiga ko'ra ikki guruhga ajratiladi, sifatlarning yasalishi va bir qancha sifat yasovchi qo'shimchalar haqida ma'lumot beriladi. Fitrat, asosan, quyidagi sifat yasovchi qo'shimchalarni ta'kidlab ko'rsatadi: *-li (bilimli), -gi (sishgi), -imtil (sargimtil), -ish (sargish), -iy (tarixiy), -ma (yozma), -ros (yaxshiros), -gon (bilagon), -gin (ozgin), -(a)r (osar suv), -gan, -kap, -san (o'sigan yigit), -lik (o'kurlik kitob)* va shu kabilar. Ko'rinadiki, Fitrat sifat yasalishi doirasini o'sha vaqtda juda keng ma'noda tushungan, ya'ni uning tarkibiga bevosita sifat yasalishi (*-li, -ma, -iy* kabi) bilan birga, sifat darajalari, ozaytirma sifat shakllari, sifatdosh shakllarini ham kiritgan.⁵

Fitrat sifat va son so'z turkumlarini bir-biridan ajratmasdan, yaxlit holda o'rganish tarafdori edi. Buni olimning son turkumiga bergan quyidagi ta'rifidan ham sezish mumkin: «Sonlar bir narsaning, bir kishining (qandayligini emas) nechaligini-qanchaligini ko'rsatsalar ham so'zlararo turishlari sifatdan ayirmasizdir. Shuning uchun ularni ham sifatlardan sanamoq mumkindir».⁶

Sifat va son so'z turkumlaridagi umumiylik ularning gapdagi bajargan sintaktik vazifasi va birikma hosil qilishda to'tgan o'rni bilan aloqador. Sifat ham son kabi gapda ko'pincha aniqlovchi vazifasini bajaradi, ot turkumiga oid so'zlardan oldin kelib, unga tobe bo'ladi. Fitrat sifatlarning «so'zlararo turishlari» deganda ularning ana shunday gapdagi vazifasi va o'rnini nazarda to'tgan bo'lishi mumkin. Lekin o'sha 20-yillardayoq sifat va sonlarni yaxlit o'rganish, ulardan umumiy belgilar qidirishga intilish keskin tanqidga uchragan edi. Masalan, N.Hakim «O'zbek tili sarfi to'g'risida» (1925) nomli maqolasida quyidagilarni ta'kidlagan edi: «Son bilan sifatni taqqoslash xato. Chunki sondagi turlar (miqdor, sara, bo'lim, chama, oshirma) va sifatdagi

⁵ Курбонова М. Фитрат - тилшунос. - Тошкент: «Университет» нашриёти, 1996. 32 6.

⁶ Курбонова М. Фитрат- тилшунос.-Тошкент:«Университет» нашриёти, 1996. 8-12 6.

darajalar (tenglashtirish, orttirish, ozayish sifatlari) son tarkibida uchramaydi»⁷.

Ye.D.Polivanov «Kratkaya grammatika o'zbekskogo yazыka» (1926) asarida ot, sifat, son va olmoshlarni yaxlit holda umumiy nom - ismlar (imena) nomi bilan talqin etgan edi. Shuning uchun bu asarda shakl yasalishi haqida so'z yuritilganda ana shu to'rt guruhdagi so'zlardan misollar

sifatlarning substantivasiyasi (otlashishi)», 1955 yilda O.Madrahimov «Hozirgi o'zbek tilida yangi yasalgan sifatlار» mavzuidagi nomzodlik ishlari himoya qilingan edi. 1957 yilda O.Madrahimovning «O'zbek tilida sifat va yangi yasalgan sifatlار masalasiga doyr» nomli maqolasi e'lon qilingan edi.⁸ Biz o'z ishimizda ana shu maqoladagi ayrim ilmiy qarashlarga munosabat bildirishni lozim topdik.

Ma'lumki, o'zbek tilida sifatning yasalishi va yangi sifatlار tahlili o'zbek tilshunosligida munosib o'rin egallaydi. Shu jihatdan qaraganda O.Madrahimovning bu maqolasi e'tiborga molik. Maqolada sifatning, ayniqsa, yangi yasalgan sifatlarning qator grammatik va semantik xususiyatlari ancha asosli tahlil qilingan. Lekin maqoladagi ayrim fikrlar munozarali bo'lib, o'zbek tili faktlariga moye kelmaydiganga o'xshaydi. Masalan, muallif yozadi: «...qadimgi turk yozma yodgorliklarida va eski o'zbek tilida *-li* affiksi uchramaydi. Uning vazifasini *-lik* (*-lig*, *-lis*, *-lug*, *-luk*)

⁷ Фитрат А. Ўзбек тили қоидалари тўғрисида бир тажриба. Сарф, 1-китоб. - Тошкент-Самарқанд: 1930. - 56 б. (лотин ёзувида).

⁸ Мадрахимов О. Ўзбек тилида сифат ва янги ясалган сифатлар масаласига дойр // ЎзФА Ахбороти, ижтимоий фанлар серияси, Тошкент, 1957, № 1.-41-47-6.

affiksi bajargan».⁹ Ana shu fikrlarni keltirib, dos.T.Xo'jayev: «qadimgi turk yozma yodgorliklarida va eski o'zbek tilida sifat yasovchi affiks vazifasida uchraydigan *-li* bilan keyingi davr uchun xarakterli bo'lgan *-lik* boshqa-boshqa affikslar emas, balki bu ikki fonetik kompleksga ega bo'lgan bitta affiksidir. Chunki ular negizga kiritadigan leksik ma'no jihatidan ham, grammatik ma'nosi jihatidan ham bir-biridan biror darajada farq qilmaydi. Ularning bir-biridan farqi fonetik sostavidadir...», degan fikrlarni bildirgan edi.¹⁰

Yana bir tilshunos olim K.Sharipova ham o'zining bir maqolasida shunga yaqin «*-lik* affiksi bir qancha fonetik variantlarga ega va differensiasiyalashgan holda deyarli hamma turkiy tillarda keng qo'llaniladi. Hozirgi o'zbek tilida *-lik* affiksi otning bir qancha ma'nolarini va shu bilan bir qatorda sifatning ham ayrim ma'nolarini ifodalashda ishlatiladi», degan fikrni bayon etadi.¹¹

Bundan ko'rinadiki, eski o'zbek tilidagi sifat yasovchi *-lik* affiksi keyinchalik o'zining egalik anglatuvchi sifat yasovchi *-li* variantining shakllanishiga asos bo'lgani holda yo'q bo'lib ham ketmagan, balki egalikdan boshqa ma'nodagi sifatlar yasovchilik vazifasini davom ettiravergan va hozir ham davom ettirmoqda, degan xulosaga kelish mumkin.

O.Madrahimov *-li* affiksining yuzaga kelish sababini yana quyidagicha izohlaydi: «...*akllilik*, *sarashlilik* formalarini *akllikdan*, *sarashlikdan* shaklda berib bo'lmasligi ochiq ko'rinib turibdi. Shuningdek, *bolali*, *bolalik*, *toshli*,

⁹ Хўжаев Т., Муллажонова Х. Янги ясалган сифатлар таҳлиliga танқидий обзор // Ўзбек тили грамматик қурилиши, лексикологияси ва диалектологияси масалалари, У чиқиши, Самарканд: СамДУ нашри, 1976, 89-99-б.

¹⁰ Хўжаев Т., Муллажонова Х. Янги ясалган сифатлар таҳлиliga танқидий обзор // Ўзбек тили грамматик қурилиши, лексикологияси ва диалектологияси масалалари, У чиқиши, Самарканд: СамДУ нашри, 1976, 89-99-б.

¹¹ Шарипова К. -лик аффиксининг сифат ясовчи вазифасида қўлланилиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972, № 5. - 69-71-б.

toshlik kabi misollar taqqoslab ko'rilsa, *-li* va *-lik* affikslarini differensiasiya qilish zarur ekanligi yanada aniq ko'zga tashlanadi. Shu kabi zaruriyatlar *-li* affiksini yuzaga keltirdi». ¹² Biz T.Xo'jayevning qarashlariga asoslanib, yuqoridagi fikrlarda noaniqlik bor, deb hisoblaymiz. Shu o'rinda T.Xo'jayevning H.Mullajonova bilan hamkorlikda yozgan maqolasidagi fikrlarni keltirishimiz o'rinli bo'ladi: «Birinchidan, bu yangi affikslarning emas, balki tilda qadim zamonlardan buyon mavjud bo'lgan sifat va ot yasovchi affikslarning keyinchalik tashqi jihatdan, *akllilik*, *qarashlilik* formalarining *akllilik*, *qarashlilik* yuzaga kelganligini ko'rsatuvchi formuladir. Ikkinchidan, *akllilik*, *qarashlilik* formalarini *akllilik*, *qarashlilik* shaklida qo'llab bo'lmasligi va, umuman, har qanday formaning boshqa bir shaklda qo'llanmasligi tilda yangi hodisaning paydo bo'lishiga sabab bo'lmaydi.. »». ¹³

O.Madrahimov yangi yasalgan sifatlar haqida so'z yuritir ekan, rus tili orqali o'zlashgan sifatlar tarkibida qo'llanuvchi — *ik*, *-iv*, *-al*, *-l*, *-ion*, *-sion*, *-asion* affikslarini o'zbek tilida mustaqil qo'llanuvchi, o'zlashgan sifat yasovchi affikslar, deb hisoblaydi. Bu mulohazani ham biz biroz haqiqatga nomuvofiq, deb bilamiz hamda dos.T.Xo'jayevning quyidagi fikriga qo'shilamiz: «Bizningcha, *antik*, *kosmik*, *genetik*, *simfonik*, *dekorativ*, *operativ*, *kooperativ*, *aktiv*, *real*, *optimal*, *internasional* sifatleri yasaluvchi negizlarga va yasovchi affikslarga ajralmaydi. Demak, ular affiksal formali sifatlar emas. Chunki ular o'zbek tilida yasalgan emas, balki o'zbek tiligacha yasalgan. O'zbek tiliga esa ular bitta morfema holida qisqartish bilan hozirgi holatida, aniqrog'i, affiksli formada emas, balki morfemalarga ajralmaydigan negiz formasida qabul qilingan. Demak, ular, etimologik jihatdangina yasama

¹² Мадрахимов И. Ўзбек тили лексемаларининг таркибига дойр // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002, № 4. - 29-32-6.

¹³ Хўжаев Т., Муллажонов Х. Янги ясалган сифатлар таҳлиliga танқидий обзор // Ўзбек тили грамматик қурилиши, лексикологияси ва диалектологияси масалалари, У чиқиши, Самарканд: СамДУ нашри, 1976, 89-99-6.

sifatlardir. O'zbek tilida esa ular, nisbatan yangi so'zlar bo'lgani holda, morfologik strukturasi jihatidan tub sifatlardir».¹⁴

Shunday qilib, O.Madrahimovning «O'zbek tilida sifat va yangi yasalgan sifatlar masalasiga doyr»¹⁵ nomli maqolasi va shu mavzuga bag'ishlangan nomzodlik dissertasiyasi¹⁶ ayrim munozarali o'rinlarga qaramay, o'zbek tilshunosligida sifat turkumiga oid so'zlarning grammatik va semantik xususiyatlarini, yasalish imkoniyatlarini tadqiq etishga qo'shilgan salmoqli ulush sanaladi.

«Hozirgi zamon o'zbek tili» (1957) nomli tadqiqotda «Sifat» mavzusi yirik tilshunos olim Z.Ma'rufov qalamiga mansub. Bu ishda sifatlarning ma'nolari va grammatik xususiyatlari tahlili asliy va nisbiy sifatlarni bir-biridan farqlashdan boshlanadi. Z.Ma'rufov talqiniga ko'ra «asliy sifatlar sezgi a'zolari bilan bevosita bilib bo'ladigan predmetga xos belgini: predmetning rang-tusini, inson va jonivorlarning fizik xususiyatlarini va xarakterini bildiradi».¹⁷ Nisbiy sifatlar esa predmetdagi belgini uning boshqa biror predmetga bo'lgan turlicha munosabatiga ko'ra bildiradi.¹⁸ Ishda sifatlarning ma'no turlari, yasalish xususiyatlari, sintaktik vazifasi haqida ham asosli fikr-mulohazalar bayon qilingan.

60-yillarga kelib o'zbek tilshunosligida sifat turkumiga oid so'zlarni o'rganishga tilshunos olim M. Sodiqova katta hissa qo'shdi. Olima 1963 yilda «O'zbek tilida rang-tus bildiruvchi sifatlar» mavzuida nomzodlik ishini himoya qildi. Ikki tomlik «Hozirgi o'zbek adabiy tili» (1966) va «O'zbek tili

¹⁴ Юқоридаги асар.94-б.

¹⁵ Мадрахимов О. Ўзбек тилида сифат ва янги ясалган сифатлар масаласига дойр // ЎзФА Ахбороти, ижтимоий фанлар серияси, Тошкент, 1957, №1.-41-47-б.

¹⁶ Мадрахимов А. Прилагательные новообразования в современном ўзбекском языке, Автореф. дис... канд. филол. наук. - Ташкент: 1950. -18 с.

¹⁷ Маъруфов З. Сифат // Ҳозирги замон ўзбек тили (лексикология, фонетика, графика ва орфография, морфология), Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1957, 343-357-б.

¹⁸ Юқоридаги асар. 343-357-б.

grammatikasi» (1975) nomli tadqiqotlarning «Sifat» mavzularini yozdi¹⁹, 1974 yilda olimaning «Hozirgi o'zbek tilida sifat» nomli monografiyasi e'lon qilindi.²⁰

Masalan, M.Sodiqova 1966 yilda e'lon qilingan «Hozirgi o'zbek adabiy tili» asarida sifatning ma'no jihatdan olti turini alohida-alohida ajratib ko'rsatgan edi: a) rang-tus bildiruvchi sifatlar: *os, sora, sizil*; b) hajm bildiruvchi sifatlar: *keng, tor, uzun*; v) shakl bildiruvchi sifatlar: *dumaloq, yassi, qiyshiq*; g) maza bildiruvchi sifatlar: *achchiq, chuchuk, shirin*; d) xarakter va xususiyat bildiruvchi sifatlar: *yaxshi, yomon, a'lo, ablah, urishqoq, tirishqoq*; ye) holat bildiruvchi sifatlar: *kasal, musofir, boy, kambag'al, yosh, qari, kal, kar, pes* va boshqalar.²¹

Olima o'zining keyingi tadqiqotlarida sifatlarning ma'no turlarini yanada kengaytirib, ularning sonini 8-9 taga yetkazgan. Agar M.Sodiqovanning 1974 yilgi monografiyasida sifatlarning ma'no turlari to'qqiztaga yetkazilgan bo'lsa, «O'zbek tili grammatikasi» (1-tom, 1975)da bu haqdagi fikrlar yanada aniqlashtirilgan va kengaytirilgan.²²

«Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalari va Ye.D.Polivanovning lingvistik merosi» mavzuida o'tkazilgan-ilmiy anjuman (1964)da dos.T.Xo'jayev «Hozirgi turkiy tillarda sifat kategoriyasiga oid ayrim munozarali masalalarga doyr» nomli ma'ruza bilan ishtirok etgan edi. Bu ma'ruzada sifatlarning ravishdan farqli xususiyatlari, asliy va nisbiy sifatlar o'rtasidagi farqli belgilar haqida fikr-mulohazalar bildiriladi. Masalan, olimning fikricha, asliy sifatlar qatoriga faqat tub sifatlarni emas,

¹⁹ Содиқова М. Сифат // Ҳозирги ўзбек адабий тили, икки томлик, 1-том. -Тошкент: Фан, 1966, 230-240-6.; Содиқова М. Сифат // Ўзбек тили грамматикаси, икки томлик, 1-том. - Тошкент: Фан, 1976, 271-306-6.

²⁰ Юкоридаги асар.298-6.

²¹ Содиқова М. Сифат // Ҳозирги ўзбек адабий тили, икки томлик, 1-том. -Тошкент: Фан, 1966, 230-240-6.;

²² Содиқова М. Сифат // Ўзбек тили грамматикаси, икки томлик, 1-том. -Тошкент: Фан, 1976, 306-6.

balki *foydali, samarali* singari yasama sifatlarni ham kiritish lozim, chunki ular belgini darajalab ko'rsatish xususiyatiga ega.²³

Shuningdek, bu maqolada F.G.Isxakov va A.A.Palmax kabi olimlarga e'tiroz bildirilib, *tot uy, yog'och ko'prik, oltin soat, temir karavot* kabi birikmalardagi aniqlovchi so'zlar otga sinonim bo'lgan sifatlardan emas, degan fikr dalillar asosida ta'kidlanadi.²⁴

«Turli tillar materiallari asosida so'z turkumlari nazariyasi masalalari»ga bag'ishlangan butunittifoq ilmiy anjuman (1965)da T.Xo'jayev va R.Qo'ngurovlar «Turkiy tillarda sifatlarning differensial belgilari haqida» mavzuida ma'ruza qilgan edilar. Ana shu ma'ruzada ayrim darslik va qo'llanmalarda otlar sifatlardan bilan, sifatlardan ravishlardan bilan aralashtirilayotgani, ya'ni *oltin soat* birikmasidagi *oltinni* gapda aniqlovchi vazifasini bajargani uchun sifat deb, *yaxshi bola yaxshi yozadi* gapidagi birinchi yaxshi sifat, ikkinchi yaxshi esa ravish, chunki u fe'lga bog'lanib, harakatning belgisini bildirayapti, deb talqin qilishlarga e'tiroz bildiriladi. Bundan tashqari, bu ma'ruzada ilmiy adabiyotlarda asliy va nisbiy sifatlardan masalasi bo'yicha ham ayrim noaniqliklardan borligi haqqoniy ko'rsatilgan edi.²⁵

O'tgan asrning 70-90-yillarida o'zbek tilshunosligida sifat turkumini talqin etish yanada chuqurlashdi va ilmiy tuye oldi. Jumladan, keyingi o'ttiz-o'ttiz besh yil davomida o'zbek tilshunosligida tilning grammatik kurilishini, lugaviy tarkibini o'rganish sohasida sezilarli yutuqlar qo'lga kiritildi. Bunday yutuqlar bevosita sifat so'z turkumini o'rganish sohasiga ham aloqadordir.

²³ Ходжаев Т. К некоторым спорным вопросам категории имен прилагательных в современных тюркских языках // Материалы конференции «Актуальные вопросы современного языкознания и лингвистическое наследие Е.Д.Поливанова», том 1, Самарканд: 1964. - С. 216-218.

²⁴ Ходжаев Т. К некоторым спорным вопросам категории имен прилагательных в современных тюркских языках // Материалы конференции «Актуальные вопросы современного языкознания и лингвистическое наследие Е.Д.Поливанова», том 1, Самарканд: 1964. - С. 216-218.

²⁵ Қўнғуров Р. Сўз туркумлари назарияси масалаларига дойр // Ўзбек тили грамматик қурилиши ва диалектологияси масалалари (илмий мақолалар тўплами). - Самарканд: 1969, 189-201-б.

Masalan, M.Xoliyorov «Ot negizlaridan soʻz yasovchi affikslar haqida» nomli maqolasida *-chi*, *-dogi*, *-kat*, *-kor* singari ot yasovchi qoʻshimchalarning xususiyatlarini kengroq tahlil etib, quyidagi xulosani bayon etadi:

«Demak, «shaxs oti yasovchi» deb yuritiladigan affikslar yordamida yasalgan soʻzlar otlarga (shaxs otlariga) emas, sifatlarga xos maʼno va grammatik xususiyatlarga ega. Chunki bu tipdagi affikslar asosan, otlarga (otlashgan boshqa soʻzlarga ham) qoʻshiladi va otdan ot emas, otdan sifat yasaydi. Shuning uchun, bizningcha, ot negizlariga qoʻshilib, yangi maʼnoli soʻz yasovchi *-chi*, *-dot*, *-kat*, *-kor* tipdagi affikslarni sifat yasovchilar, ular yordamida yasalgan soʻzlarni esa yasama sifatlari deb atash lozim boʻladi. *Ishchi*, *kolxozchi*, *paxtakor* kabi yasama sifatlarning kontekstdan tashqarida ham ot kabi tushunilishini esa substantivasiya hodisasi deb qarash kerak».²⁶

M.Xoliyorov oʻzining yuqoridagi fikrini «Yasama sifatlarning otlashishi» (1973) nomli maqolasida yangi dalillar bilan toʻldirdi va ilmiy jihatdan chuqurroq asoslashga intildi. Olimning talqinicha, «shaxe oti yasovchi» deb kelingan *-chi*, *-kash*, *-kor*, *-dot* tipdagi affikslar oʻzbek tilida sifat turkumiga oid soʻz yasaydi. Shu sababli bunday affikslar yordamida yasalgan *ishchi*, *paxtakor*, *aravakash* kabi otlashgan soʻzlarni yasama otlar demasdan, otlashgan yasama sifatlari deb atagan maʼqul».²⁷

50-yillarda O.Madrahimov, keyinchalik K.Sharipova, T.Xoʻjayev boshlab bergan *-lik* affiksining sifat va ot yasash xususiyati haqidagi munozaraga M.Xoliyorov maʼlum darajada aniqlik kiritishga intildi. Olimning fikricha, «hozirgi oʻzbek tilida *-lik* affiksi otlarga qoʻshilsa sifat, sifatlarga qoʻshilsa ot yasaydi: *yoʻzlik* (*kiyim*), *koʻrpalik* (*chit*), *shaharlik*

²⁶ Холиёров М.Ясама сифатларнинг отлашиши //Ўзбек тили ва адабиёти, 1973, №2.-41-42-6.

²⁷ Холиёров М.Ясама сифатларнинг отлашиши //Ўзбек тили ва адабиёти, 1973, №2.-41-42-6.

(yigit), toshkentlik (mehmonlar); yaxshilik, kattalik, yomonlik kabi».²⁸ Shunga ko'ra M.Xoliyorov -lik affiksi o'zi qo'shilgan negizning qaysi so'z turkumiga oidligini ko'rsatuvchi mezon vazifasini o'tashini alohida ta'kidlaydi.

M.Asqarova, H.Abdurahmonovlarning «O'zbek tili grammatikasining praktikumi» (1981) asarida sifatlar juda qisqa talqin qilingan, asarda sifat turkumiga oid so'zlar dastlab asliy va nisbiy sifatlar, deb ikki guruhga ajratilgan; sifatlarda oddiy darajadan ikki xil daraja: qiyosiy daraja (*yaxshi - yaxshirok*), orttirma daraja (*yaxshi -eng yaxshi, juda yaxshi, g'oyat yaxshi, hammadan yaxshi*) hosil bo'lishi ko'rsatilgan. Sifatlar tuzilishiga ko'ra sodda sifatlar (*go'zal, baxtiyor, chiroyli*), qo'shma sifatlar (*sohibjamol, ochko'z*), murakkab sifatlar (*jigar rang, bodom qovoq*), juft sifatlar (*past-baland, och-yalang'och*)ga ajratilgan.²⁹

G.Sodiqova *achchu, harir, sattu, sillu, shirin* kabi SLlarni «sezgi ifodalovchi sifat sememalari» nomi ostida o'rganib, ularning komponent tarkibini belgilashga intiladi.³⁰

U.Tursunov, J.Muxtorovlar tomonidan yaratilgan «Hozirgi o'zbek adabiy tili» (birinchi nashri, 1965; ikkinchi nashri, 1975; uchinchi nashri 1992) asarida sifatning ma'nosi va grammatik belgilari talqiniga keng o'rin berilgan. Bu ishda uning oldingi nashrida bo'lganidek, sifatarning otga ko'chishi va otlashuvi (substantivasiyasi) hodisalarini bir-biridan farqlashga harakat qilinadi. «Sifatning otga ko'chishi va otlashuvi, boshqa-boshqa hodisalardir. Bir turkumdagi so'zning boshqa turkumga ko'chishi deganda til taraqqiyoti natijasida bir turkumdan ikkinchi turkumga o'tgan so'z nazarda tutiladi. Bunda mazkur so'zning grammatik mohiyati, kisman ma'nosi

²⁸ Юқоридаги асар - 81-82-б.

²⁹ Асқарова М, Абдурахмонов Х. Ўзбек тили грамматикасининг практикуми. -Тошкент: Ўқитувчи, 1981. - 248 б.

³⁰ Содикова Г. Сизги ифодаловчи сифат семемалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1977, № 3. - 53-55-б.

o'zgaradi. Sifatlarning otga ko'chishi ham shunday hodisadir. Masalan, *qiz, o'g'il, erkak, ayol, kasal, chol* kabi so'zlar asli sifat bo'lib, keyinchalik otga aylangan. Bunday so'zlarning otga ko'chganini yoki ko'chayotganini ko'rsatuvchi belgi ularning sifat bilan ifodalangan aniqlovchi olishida ko'rinadi: *Yosh yigit, qari chol, chiroyli ayol* kabi.

Sifatning (yoki boshqa biror turkum so'zining) otlashuvi esa uning gapda ot bajaradigan sintaktik vazifada kelishidir..».³¹

S.Usmonovning M.Mirzayev va I.Rasulovlar bilan hamkorlikda yozgan «O'zbek tili» nomli asari (1978) da ham sifatlar tahlili ixcham berilgan.³² Lekin bu asarda, bizningcha, bir noaniqlikka yo'l qo'yilgan, ya'ni rus tili orqali kirgan ba'zi sifatlar tarkibida uchrovchi *-ik (pedagogik), -iv (obyektiv, progressiv), -l, -al (formal, gorizontal), -on (intonasion)* kabi affikslar sifat yasovchi affikslar deb talqin qilinadi.³³ Bu fikrning asossiz ekanligini biz yuqorida O.Madrahimovning maqolasi haqida mulohaza yuritganimizda ham to'xtalib o'tgan edik.

«Hozirgi o'zbek adabiy tili» (1-qism,1980) nomli darslik o'zbek tilshunosligida salmoqli o'rin tutadi. Ana shu asardagi «Sifat» mavzusi yirik tilshunos olim A.Hojiyev qalamiga mansub.³⁴ Bu darslikda sifatlarning grammatik xususiyatlarini tahlil etishda oldingi ishlarga nisbatan farqli tomonlar ancha ko'prok. Eng muhimi, bu ishda sifatlar asliy va nisbiy deb ikki turga ajratilmagan, bunday yo'l tutishning sababi ham ko'rsatilmagan. Sifatlarda oddiy (normal) daraja, orttirma daraja va ozaytirma daraja mavjudligi ta'kidlangan. Orttirma daraja fonetik usul bilan

³¹ Турсунов У., Мухторов Ж. Сифат // Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев ТУТ. Ҳозирги ўзбек адабий тили, қайта ишланган, тўлдирилган учинчи нашри. -Тошкент: Ўзбекистон, 1992. 280 - 287-б.

³² Усмонов С. Сифат // Мирзаев М., Усмонов С, Расулов И. Ўзбек тили. -Тошкент: Ўқитувчи, 1978, 100-109-б.

³³ Усмонов С. Сифат // Мирзаев М., Усмонов С, Расулов И. Ўзбек тили. -Тошкент: Ўқитувчи, 1978, 100-109-б.

³⁴ Ҳожиев А. Сифат // Шоабдурахмонов Ш., Аскарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили, 1-қисм. - Тошкент: Ўқитувчи, 1980,251-258-б.

(*dum-dumaloq, ko'm-ko'k*), leksik usul bilan (*nihayatda baland, behad xursand, juda go'zal*), ozaytirma daraja esa leksik usul bilan (*sal durust, bir oz yaxshi, xiyol ochiq*), morfologik usul bilan (*kattaroq, kichikroq, sargishroq* kabi) hosil bo'lishi izohlab berilgan.³⁵

Shuningdek, darslikda sifatning juft shakli (*yaxshi-yomon, katta-kichik*) va takroriy shakli (*yosh-yosh*) mavjudligi yoritib berilgan. Bu darslikda umuman o'zbek tilidagi so'z yasalihi hodisasi alohida bobda tahlil qilingan. Shu bilan bog'liq holda sifatlarning affiksasiya va kompozisiya usullari bilan yasalihi alohida-alohida keng yoritilgan. Darslikning bu qismida, ayniqsa, qo'shma sifatlarni so'z birikmalaridan farqlash lozimligi aniq dalillar asosida ochib berilgan: *mosh rang duxoba // mosh rang duxoba do'ppi // mosh rang duxoba do'ppili bola* kabi. Bu darslikda sifatlar ma'nosiga ko'ra quyidagi sakkiz turga ajratib tahlil qilingan: a) xususiyat bildiruvchi sifatlar: *kamtarin, mugombir, sodda, kuvnoq, mehribon* kabi; b) holat bildiruvchi sifatlar: *badavlat, xursand, mayus, keksa, durkun, sovuq, ilq, tinch* kabi; v) shakl-ko'rinish bildiruvchi sifatlar: *gavdali, novcha, uzunchoq, yassi* kabi; g) rang-tus bildiruvchi sifatlar: *os, qora, qizil, pushti, sariq, zangor* kabi; d) hajm-o'lchov bildiruvchi sifatlar: *keng, tor, uzun, yaqin, katta, og'ir, yengil* kabi; ye) maza-ta'm bildiruvchi sifatlar: *shirin, bemaza, nordon, achchiq* kabi; yo) hid bildiruvchi sifatlar: *xushbo'y, badbo'y, qo'lansa* kabi; j) predmetning o'rin yoki vaqtga ko'ra belgisini bildiruvchi sifatlar: *yozgi, kuzgi, sishki, ichki, sirtqi* kabi.³⁶

Tilshunos olim A.Hamitova 70-80-yillarda turkiy tillarda so'z ma'nosining kuchaytiruv vositalarini o'rganish sohasida qator ishlarni amalga oshirdi. Olimaning nomzodlik dissertatsiyasi, bir necha ilmiy

³⁵ Ҳожиёв А. Сифат // Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М, Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили, 1-қисм. - Тошкент: Уқитувчи, 1980, 251-258-б.

³⁶ Ҳожиёв А. Сифат // Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили, 1-қисм. - Тошкент: Уқитувчи, 1980, 251-258-б.

maqolalari hamda «Turkiy tillarda soʻz maʼnosining analitik yoʻl bilan kuchaytirilishi» nomli monografiyasi (1984) xuddi shu muammoni oʻrganishga bagʻishlangan edi. Olimaning kuzatishlaridan shu narsa maʼlum boʻladiki, oʻzbek tilida *juda, eng, gʻoyat, nihoyatda, bir, biram, tim, naq, zap, behad, benihoya, cheksiz, beqiyos* kabi soʻzlar sifat darajalari singari belgini kuchli, emosional boʻyoqdor shaklda ifodalashga xizmat qiladi.³⁷

80-yillarda S.Gʻiyosov oʻzbek tilidagi subyektiv baho sifatlarining semik tahlilini amalga oshirdi, shu mavzuga oid bir necha ilmiy maqolalar yaratdi va nomzodlik dissertasiyasini himoya qildi.³⁸ Masalan, S.Gʻiyosov «Oʻzbek tilida asliy sifatlarining koʻchma baholash maʼnosi haqida» nomli maqolasida dastlab asliy sifatlarini maʼno jihatdan tabiiy (fizik) xususiyatlarni ifodalovchi (*katta tosh, kichik tosh* kabi) va subyektiv baho maʼnolarini ifodalovchi (*yaxshi, chiroyli* kabi) deb ikki guruhga ajratadi. Shundan keyin fizik belgi ifodalovchi sifatlar koʻchma maʼnoda qoʻllanganda ularning semantik strukturasida roʻy beradigan oʻzgarishlarni birma-bir tahlil etadi, buning uchun *ogʻir* soʻzining turli matnlarda qoʻllanilishiga oid misollarni keltiradi.³⁹

Maʼlumki, oʻzbek tili semasiologiyasining asosiy nazariy muammolaridan biri leksik materialni tahlil qilish birligi va bu birliklarning asosiy lugʻaviy birlik (soʻz)ga munosabati masalasini aniqlashdir. Shuningdek, oʻzbek tili lugʻat tarkibining leksik-semantik guruh (LSG) larini sinchiklab oʻrganish oʻzbek tilshunosligi oldida turgan dolzarb

³⁷ Хамитова А. Туркий тилларда сўз маъносининг аналитик йўл билан кучайтирилиши. - Тошкент: Фан, 1984. - 104 б.

³⁸ Гиясов С. Семантическая структура и компонентный анализ качественных прилагательных ўзбекского языка, Автореф. Дис.канд.филол.наук. -Ташкент: 1983.-27 с.

³⁹ Ғиёсов С. Ўзбек тилида аслий сифатларнинг кўчма баҳолаш маъноси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1982, № 4. - 51-54-б.

muammolardan biri sanaladi.⁴⁰ Masalaga ana shu nuqtai nazardan qaraganda, S.G'iyosovning subyektiv baho ifodalovchi (SBI) sifatlarni sakkiz ichki LSGga ajratib tahlil qilishi, bu LSGlarning bir-biridan semik tarkibi jihatdan farqli tomonlarini ko'rsatishi diqqatga sazovor. Masalan, S.G'iyosovning fikriga ko'ra, subyektiv aqliy faoliyatiga ko'ra belgini ifodalovchi LSGga *aqli, dono, oqil* kabi sifatlar kiradi. Ular subyektiv aqliy faoliyati bahosini turli jihatdan xarakterlaydi.⁴¹

O'zbek tilshunosligida sifat so'z turkumini o'rganish bilan bog'liq har bir ilmiy tadqiqotning o'ziga xosligi, izlanish metodlarining xilma-xilligi ko'zga tashlanadi.

M.G'anixov jayeva esa nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek tilidagi rang bildiruvchi sifatlarni qiyosiy-tarixiy yo'nalishda tadqiq etib, ularning rivojlanish dinamikasini, sof turkiy va o'zlashgan rang bildiruvchi so'zlar qatlamini aniqlagan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, eski o'zbek tili yozma yodgorliklarida *qizil, kok, yashil* singari rang bildiruvchi so'zlar ko'chma ma'nolarda qo'llanmaydi, substantivasiyaga uchragan *qora* so'zi esa eng ko'p - sakkiz ma'noda qo'llanishi ma'lum bo'ldi; rang bildiruvchi so'zlarning yozma yodgorliklar tilida qo'llanish chastotasi quyidagicha: *qora* - 18,8 %, *oq* - 15,8 %, *qizil* - 6,89 %, *ko'k* - 3,5 %, *yashil* - 2,5 %, *sariq* - 2,5 % kabilar(30, 4-1 b).⁴²

A.Aymurzayeva nomzodlik dissertatsiyasida qoraqalpoq tilida sifat va sifatdoshlarning otlashuvi (substantivasiyasi) hodisasini maxsus o'rganib, uni so'z yasallashining turlaridan biri, transpozitsiyaning ko'rinishi deb talqin

⁴⁰ Кўчкортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги (ўзбек тилидаги нутқ феъллари материали асосида). - Тошкент: Фан, 1977. - 168 б.

⁴¹ Гийсов С. Ўзбек тилида субъектив баҳо сифатларининг семик таҳлили // Ўзбек тили ва адабиёти, 1986, № 2. - 28-32-б.

⁴² Ганиходжаева Н.Г. Сравнительно-историческое исследование прилагательных цвета в узбекском языке. Автореф. дис... канд. филол. наук. - Ташкент: 1986.-18 с.

qiladi. Muallifning fikricha, a) insonning fizik va ruhiy nuqsonini ifodalovchi (*oqsoq, so'qir, garang, qiyshiq, gung* kabi), b) insonning ichki va tashqi holatini bildiruvchi (*semiz, oriq* kabi), insonning jamiyatdagi o'rnini bildiruvchi (*boy, kambag'al, mo'min, yalang'och*) sifatlar ko'proq substantivasiyaga uchraydi, bu barcha tillar uchun umumiy, universal holat sanaladi.⁴³

S.I.Matchanova nomzodlik dissertasiyasida rus va o'zbek tillaridagi rang bildiruvchi so'zlarning struktural va leksik-semantik munosabatini aniqlab, rus tilidagi rang-tus sifatlarini o'zbek tilida ifodalash bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqqan. Jumladan, bu tadqiqot natijalaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, *belıy*// *oq*, *chernıy* // *qora* *krasnyıy* // *qizil* *siniy* // *ko'k*, *jeltıy* // *sariq* kabi rang-tus bildiruvchi sifatlardan o'zbekcha ekvivalentlari ruschaga nisbatan ko'chma ma'nolari ko'pligi bilan ajralib turadi, birgina *ko'k* leksemasi rus tilidagi *siniy*, *goluboy*, *zelenıy*, *serıy*, *sizıy*, *sivıy* kabi rang xususiyatlarini ifodalash imkoniyatiga ega. Yoki rus tilidagi *serebristo-belıy* rang bildiruvchi so'zi o'zbek tiliga turli lug'at va darsliklarda *kumushsimon oq*, *kumushday oq*, *kumushrang oq*, *kumushrang*, *kumushdek oq*, *kumushdek oq rang*, *yaltiroq*, *och kul rang*, *kumush kabi oq*, *oq tusli*, *oq*, *qizg'ish kulrang*, *och sariq*, *sarg'ish tusli*, *po'lat kabi yaltiroq*, *kulrang po'latsimon*, *kumushsimon ko'kish oq rang*, *oqish kul rang*, *havorang*, *sarg'ish pushti rangli* kabi yigirmaga yaqin birikmalar yordamida tarjima qilingan.⁴⁴

Yo.Tojiyev o'zbek tilshunosligida affiksal sinonimiya muammolarini tadqiq etishga salmoqli hissa qo'shdi. Jumladan, uning qator ilmiy

⁴³ Аймурзаева А.А. Субстантивация имен прилагательных и причастий в современном каракалпакском языке. - Автореф. дис... канд.филол. наук, Ташкент: 1985. - 20 бет.

⁴⁴ Матчанова СИ. Русско-ўзбекские параллели цветообозначений, Автореф. дис... канд. филол. наук. - Ташкент: 1987. - 21 с.

maqolalari⁴⁵, monografiyasi⁴⁶ sifat yasovchi affikslarning ma'nodoshligi masalasini o'rganishga bag'ishlangan. O'zining bu sohadagi izlanishlarini olim keyinchalik doktorlik dissertasiyasida umumlashtirdi.⁴⁷ Bu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida ot turkumiga oid so'zlardan sifat yasab, o'zakdan anglashilgan obyektga umuman ega ekanlikni bildiruvchi **-li//dor**, **-li//ser-**, **-dor//ser-**, **-li//ba-**, **-li//kor** > **-li//mand**, **-li//don**, **-li//nok**, **-li//chan**, **-li//tou**, **ba//dor**, **ba//chan** kabi so'z yasovchi affikslar sinonimik juftliklarni hosil kiladi. Shuningdek, ot turkumiga oid so'zlardan sifat yasab, o'zakdan anglashilgan obyektga ega emaslikni bildirgan **-siz//be-**, **-siz//no-**, **be//no-**, **-siz//nim**-kabi so'z yasovchi affikslar ham tilimizda sinonimik juftliklarga ega ekanligini ta'kidlab o'tadi.

R.R.Lutfullayeva nomzodlik dissertasiyasida rus va o'zbek tillaridagi baynalminal asosga ega bo'lgan *aktiv, intensiv, progressiv, agressiv, agrotexnik, omonimik, sinonimik, antonimik, funksional, internacional, okkazional, ekspressiv, emosional, rasional* singari sifatlarning qo'llanish xususiyatlarini, ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish usullarini, muqobil variantlarini o'rgangan edi.⁴⁸

90-yillarda nashr etilgan «O'zbek tilining amaliy grammatikasi» (1992), «O'zbek tili jadvallarda» (1993), «O'zbek tili» (ixtisoslik grammatikasi, 1993) kabi qo'llanma va darsliklarda sifat turkumiga oid so'zlarni

⁴⁵ Тожиев Ё. -ЛИ, -ДОР ва СЕР- аффиксларининг синонимик муносабати ҳақида // Ўзбек тили стилистикаси масалалари, ТошДУ асарлари, 427-чиқиши, Тошкент: 1972. - 181-186-б.; Тожиев Ё. -ЛИ ва СЕР- аффикслари синонимияси // Ўзбек тилшунослиги масалалари, ТошДУ илмий асарлари, 475-чиқиши, Тошкент: 1975. - 87-95-б.

⁴⁶ Тожиев Ё. Ўзбек тилида аффиксал синонимия. - Тошкент: ТошДУ нашри, 1981.-92 б.

⁴⁷ Таджиев Ё. Аффиксальная синонимия в узбекском языке, Автореф. дис... доктора филол. наук. - Ташкент: 1991. - 48 с.

⁴⁸ Лутфуллаева Р.Р. Прилагательное с интернациональной основой в русском и узбекском языках, Автореф. дис... канд. филол. наук. - Ташкент: 1990. - 24 с.

qismining muallifi sanaladi.⁴⁹ Bu qismda morfologik uslubiyat, jumladan, sifatlarning uslubiy jihatdan qo'llanish xususiyatlarini yoritishga ham alohida ahamiyat berilgan.

Prof.A.G'ulomov sifatlarning nutq jarayonida qo'llanishida quyidagi ikki holatni alohida qayd etadi: a) otning aniqlovchisi bo'lib kelish holati: *oq qayin, quvnoq qiz, tux bola, tiniq osmon* kabi; b) kesim bo'lib kelish holati: *Osmon ko'm-ko'k. Suvlar tiniq. Bola yosh* kabi. Sifat bu ikki qo'llanish holatida ham predmetning belgisini bildiradi, lekin bu belgining tasvirlanish xususiyati bir xil emas. Kesim vazifasida kelgan sifat predmetning belgisini yo tasdiqlaydi, yo inkor qiladi. Aniqlovchi vazifasida kelgan sifat esa otdan anglashilgan ma'noni ba'zan toraytiradi: *oq lenta* (lentaning bir turi), ba'zan ma'noning hajmiga ta'sir qilmaydi: *oq sut* (sutning rangiga ko'ra turi yo'q), ba'zan ko'chma ma'nodagi sifatlovchi aniqlovchi uslubiy vazifa bajaradi: *oppoqqina chaqaloq* kabi. Olim o'zining sifatlarning uslubiy xususiyatlari, sifat darajalari va boshqa forma yasalish imkoniyatlari haqidagi ilmiy-nazariy qarashlarini «Sifat haqida mulohazalar» nomli maqolasida yanada konkretlashtirdi va to'ldirdi.⁵⁰

Prof.R.Qo'ng'urov (1933-1994) haqli ravishda o'zbek tilshunosligida morfologik uslubiyat muammolarining dastlabki yirik tadqiqotchilaridan biri sanaladi. Olimning ilmiy merosida sifat so'z turkumining uslubiy imkoniyatlarini tadqiq etish ham alohida o'rin tutadi.

R.Qo'ng'urov dastlab ilmiy to'plamlardan birida «Sifat stilistikasi» nomli ko'lamdor maqolasi bilan ishtirok etdi.⁵¹ Bu maqola sifatning asosiy semantik va grammatik xususiyatini ta'kidlovchi quyidagi ta'rif bilan

⁴⁹ Ғуломов А. Стилистика // Ғуломов А., Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. Ўзбек тили дарслиги, 9-синф учун. -Тошкент: Уқитувчи, 1977, 28-79-6.

⁵⁰ Ғуломов А. Стилистика // Ғуломов А., Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. Ўзбек тили дарслиги, 9-синф учун. -Тошкент: Уқитувчи, 1977, 28-79-6

⁵¹ Қўнғуров Р. Сифат стилистикаси // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари (илмий мақолалар тўплами), Самарканд: СамДУ нашри, 1982,3-10-6.

boshlangan: «Sifat ma'lum bir belgini ko'rsatuvchi so'zlar gruppasi tarzida mustaqil, ammo funksiyasi jihatidan boshqa so'z turkum (ot va otlashgan so'zlar) larining ma'lum xususiyatini konkretlashtiruvchi, uning ma'nosiga aniqlik kiritishga yordam beruvchi so'zlar hisoblanadi».⁵² Shundan keyin olim *magazindan olma sotib oldim* va *magazindan kizil olma sotib oldim* gaplarini o'zaro muqoyasa qilib, keyingi ganda *sizil* SLsi sotib olinayotgan narsaning rangi haqidagi tasavvurni oydinlashtirishga, konkretlashtirishga xizmat qilishini uqtirgan.

Sifat turkumiga oid so'zlar badiiy va publisistik uslubda epitet (sifatlash) sifatida faol qo'llanish xususiyatiga ega ekanligi, sifatlarda ma'nodoshlik hodisasi keng tarqalgani ham olim e'tiboridan chetda qolmagan. Ana shundan kelib chiqib, maqolada sifatlarni stilistik kategoriya sifatida talqin qilish mumkin, degan xulosaga kelingan.

Prof.R.Qo'ng'urov sifatlarda biri o'rnida ikkinchisini qo'llash imkoniyatini tadqiq etish uchun bir necha ma'nodosh SLlar guruhini tahlilga tortgan: a) *oruq, ozgin, qiltiriq, dirdov, ipiltiriq, ramaqijon, log'ar*; b) *katta, uluq, buyuk, zo'r, ulkan, bahaybat, haybatli, yirik, gigant*; v) *chiroyli, go'zal, husndor, husnli, xushro'y, ko'hlik, kurkam, barno, suluv, zebo, latofatli, sohibjamol* kabi. Shunisi muhimki, keltirilgan bunday sinonimik qatorlarning har biriga xos SLlarning vazifaviy uslublarda qo'llanish doirasi, ijobiy yoki salbiy ma'no bo'yogiga egaligi, qaysi o'rinlarda ularni o'zaro biri o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin emasligi tadqiqotchi tomonidan aniq ko'rsatilgan hamda SLlarning ma'nodoshlik xususiyati faqat leksikologiyada emas, grammatikada, aniqrog'i, morfologiyada ham o'rganilishi lozimligi alohida ta'kidlangan.

⁵² Қўнғуров Р. Сифат стилистикаси // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари (илмий мақолалар тўплами), Самарканд: СамДУ нашри, 1982,3-10-6.

R.Qo'ng'urovning mazkur maqolasida sifat shakllarini hosil qiluvchi morfemalar sinonimiyasi tahliliga ham e'tibor qaratilgan. Dastlab olim daraja hosil qiluvchi -roq, -mtir (-imtir, -imtil), -ish kabi affiksalar morfemalar sinonimiyasi haqida so'z yuritadi, shu masalaga oid xarakterli misollar keltiradi. Olim o'zining «Hozirgi o'zbek tilida o'zgarmaydigan so'zlar» (1978) nomli ishida bunday grammatik shakllarni «grammatik ma'no bilan bog'langan bo'lib, yangi leksik ma'noli yangi so'z yasamaydigan, balki so'zlarni turli xil modifikasiya qiladigan... modal forma yasovchi affikslar» deb hisoblagan, modallikni so'zlovchining aytilayotgan fikr mazmuniga, fikr mazmunining borliqqa munosabatini anglatishi nuqtai nazaridan kelib chiqib, «modal forma» birikmasini keng ma'noda qo'llagan edi.⁵³ R.Qo'ngurov morfologik uslubiyatga doyr ishlarida predmet belgisining ortiqligini ko'rsatishga xizmat qiluvchi **eng** so'zi o'rni bilan *juda, goyat, nuoyat, behad, cheksiz, goyatda, nuoyatda* kabi so'zlar bilan vazifadoshlik qilish imkoniyatiga ega ekanligini izchil ochib berishga intilgan.⁵⁴

Maqola oxirida olim sifat yasovchi *-li, ba-, -dor, -siz, no-, -lik, -mand, -simon, -gi, -qi, -ki, -gon, -gir, -kir, -qir, -gir* singari affikslar sinonimiyasi masalasini asosli tahlil qilgan. Olimning' ana shunday nozik ilmiy kuzatishlari o'z-o'zidan morfologik uslubiyat, jumladan sifat so'z turkumi uslubiyati muammosini tadqiq etishga keng yo'l ochganligini ta'kidlash o'rinlidir.

Prof.R.Qo'ng'urov keyinchalik o'zining sifat so'z turkumi uslubiyatiga doyr ana shu izlanishlarini yanada izchil davom ettirib, o'z mulohazalarini

⁵³ Қўнғуров Р. Ҳозирги ўзбек тилида ўзгармайдиган сўзлар (лекциялар текста), 1-қисм. - Самарканд: СамДУ нашри, 1978. - 66 б.

⁵⁴ Қўнғуров Р. Сифат стилистикаси // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари (илмий мақолалар тўплами), Самарканд: СамДУ нашри, 1982,3-10-6.

hamkorlikda yaratilgan «O'zbek tili stilistikasi» asariga kiritgan edi.⁵⁵ Shu asosda professor R.Qo'ng'urovni biz sifat so'z turkumining uslubiya-tini maxsus o'rganishni boshlab bergan zahmatkash olim deyishga har jihatdan haqlimiz.

Prof. B.Io'ldoshev statistik metod asosida kuzatish olib borib, Sayd Ahmadning birgina «Ufq» trilogiyasi tilida rang-tus sifatlari ishtirok etgan yuzdan ortiq so'z bog'lanmasi mavjudligini aniqlagan, bunday sifatlar ko'pincha epitet, o'xshatish, metaforik birikma tarkibida keladi, *qizil*, *ko'k* va *yashil* sifatlari uchragan so'z bog'lanmalari asar da eng ko'pchilikni (52,4 foyizni) tashkil etishini aniqlaganligini qayd etadi.⁵⁶

A.Abdurahmonov *qizil*, *oq* va *qora* so'zlarning Oybek she'riyatida ko'chma ma'noda qo'llanish xususiyatlarini, ya'ni simvolik ma'nolarini aniqlashga intiladi. Maqolada ta'kidlanishicha, Oybek she'rlarida *qizil to'lqin*, *qizil bayroq*, *qizil nur*, *qizil qo'shin*, *qizil askar*, *oppoq dastor*, *qora yer*, *qora quyun*, *qora bo'yoq*, *qora dud* kabi birikmalar ijtimoiy-siyosiy hayotning turli qirralarini obrazli poetiklashtirishga vosita bo'lgan.⁵⁷

Tilshunos olim S.Karimov esa shoira Zulfiya poeziyasida *go'zal*, *oq*, *ko'k*, *aziz* kabi sifatlarning epitet vazifasida kelishi, bunda shoiraning individual uslubi, poetik mahorati haqida muhim fikr-mulohazalarni bildiradi. Olimning fikricha, shoira Zulfiya ijod jarayonida so'zga bo'lgan talabini kuchaytira bordi, ulardagi yangi ma'nolarni kashf qilishga intildi. Keyingi yillarda yaratilgan «dilparast she'r» («Harorat»), «ishqparast qalb» («Urik gullaganda»), «baxmal to'sh dara» («Qayinzorda»), «sulhparvar

⁵⁵ Kўнғуров Р. Сифат стилистикаси // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари (илмий мақолалар тўплами), Самарканд: СамДУ нашри, 1982,3-10-6.

⁵⁶ Йўлдошев Б. Сайд Аҳмад асарлари тилида ранг билдирувчи сифатлар ва уларнинг стилистик функциялари ҳақида // Ўзбек тили грамматикаси, диалектологияси ва лексикологияси масалалари (илмий мақолалар тўплами), янги серия, 319-чиқиши, Самарканд: СамДУ нашри, 1977, 76-81-6.

⁵⁷ Абдурахмонов А. Қизил, оқ ва қора сўзларининг лексик-семантик хусусиятлари // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари (илмий мақолалар тўплами), СамДУ асарлари, янги серия, 346-чиқиши, Самарканд: 1978, 27-31-6.

ellar», «tinchlik ko'rg'oni» («Salom sizga, erkparvar ellar»), «mayin qat'iyat» («Ko'kchatog'»), «jasur kalam» («Mushoira») kabi qator original epitetli birikmalar shoira tinimsiz ijodiy izlanishlarining, badiiy tafakkur kamolotining mevasidir.⁵⁸ Tadqiqotchi o'zining epitetlarga doyr bunday nozik kuzatishlarini keyingi ishlarida ham izchil davom ettirdi.⁵⁹

Yana bir tilshunos olim B.Yoriyev *qizil, qip-qizil, oppoq, qora* kabi sifatlarning xilma-xil uslubiy ma'nolarni ifodalashga xizmat qilishini, ular she'rning badiiy ta'sirchanligini oshirish vositasi ekanligini Maqsud Shayxzoda poeziyasi misolida yoritishga intilgan. Eng muhimi, ishda sifatlarning okkazional qo'llanilishi (*aklli qo'limiz, aklli qo'lmiz, otuvchi qalam, yozar miltiq* kabi) bilan bog'liq uslubiy xususiyatlar tahliliga e'tibor qaratilgan.⁶⁰

M.Mamatov esa sifatlarni o'rganishda boshqacha yo'l tutdi. U o'z ishida sifat va otlarning predikativ aniqlovchi vazifasida kelishiga konkret dalillar keltiradi hamda *ma'yus, g'amgin, horgin* kabi sifatlar ish-harakatni bildirayotgan kesimning o'zi bilan ham bevosita aloqaga kirishishini ta'kidlab ko'rsatadi.⁶¹

K.Yusupovning kuzatishlari esa publisistik uslub nuqtai nazaridan olib borilganligi ko'zga tashlanadi. U XX asrning birinchi yarmi vaqtli matbuot materiallari asosida so'z ma'nosida yuz beradigan o'zgarishlarni o'rganadi, bunda olim qizil va qora so'zlarining bosh ma'nosidan tarkib topgan yondosh ma'nolar (*qizil choyxona, qizil adliyachi, qizil matbuot, qizil bayram, qizil kun, qizil ketmonchi; qora xat, qora yolgon, qora o'tmish* kabilar)ni tahlil

⁵⁸ Зулфия поэзияси тилида эпитетлар // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари (илмий мақолалар тўплами), СамДУ асарлари, янги серия, 346-чиқиши, Самарқанд: 1978, 58-66-бетлар.

⁵⁹ Каримов С. Ўзбек тилининг бadiий услуби. - Самарқанд: «Зарафшон», 1992.- 140 б.

⁶⁰ Ёриев Б. Сифатларнинг стилистик хусусиятлари (М.Шайхзода шеърляти мисолида) // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари (илмий мақолалар тўплами), Самарқанд, СамДУ нашри, 1980. - 56-59-б.

⁶¹ Маматов М.Ш. Сифат ва отларнинг айрим стилистик хусусиятлари хақида // Ўзбек тили стилистикасидан кузатишлар (илмий мақолалар тўплами), Самарқанд:1983,59-61-б.

qilishga intiladi. Olim sifatlarning boshqa so'zlar bilan aloqaga kirishuvi va sintaktik birikma hosil qilishini kolligasiya hamda kollokasiya atamaları bilan yuritish tarafdori sifatida ko'rinadi. Monografiyada ta'kidlanishicha, *kolligasiya* grammatik ma'nolarga asoslangan umumiy hodisa sanalsa, *kollokasiya* kolligasiyaning nutqiy talabga ko'ra yuzaga chiqishidir (175, 48-52).⁶²

Prof.B.O'rinboyev o'zbek tilida so'zlashuv nutqi uslubi, uning o'ziga xos fonetik, grammatik va uslubiy xususiyatlarini tadqiq etish sohasida qator ishlarni amalga oshirdi.⁶³ Jumladan, olim o'zining keyingi ishida SLlarning so'zlashuv nutqi uslubida epitetlar hosil qilishda keng qo'llanishini ta'kidlaydi hamda sifatlarning ozaytirma, orttirma darajalarini hosil qiluvchi *tum-tumaloq, bus-butun, bo'm-bo'sh, pak-pakana, to'gridan-to'gri, yaxshi-yaxshi, sarxil-sarxil, tim qora, yanada chiroyli, undan ham yaxshiroq, qoramtir, ko'kimtir, oppoq* kabi shakllarning uslubiy imkoniyatlarini yorituvchi xarakterli dalillar keltiradi.

G.A.Qurboniyazov o'z nomzodlik ishida ikki til materiallaridan foydalangan. U o'zbek va qoraqalpoq adabiy tillaridagi *qattiq, qattıy* leksemalarining qiyosiy tahlilini amalga oshirishga harakat qilgan. Tadqiqot natijasida o'zbek tilidagi *qattiq* leksemasining 15 ta, qoraqalpoq tilidagi *qattıy* leksemasining 12 ta sememasi borligi, *qattiq 13, kattiq 14, qattiq 15* sememalari o'zbek tiliga rus tilidan kalkalash yo'li bilan o'zlashganligi aniqlangan. Rus tilidagi «tverdaya voda» birikmasi «qattiq suv», «tverdıye soglasnyıye» birikmasi «qattiq undoshlar», «tverdaya valyuta» birikmasi esa «qattiq valyuta» deb olingan. Qoraqalpoq tilida bu ma'nolar boshqa sememalar bilan beriladi. «Qattiq suv» birikmasi «kermek suo'», «qattiq

⁶² Юсупов К. Ўзбек адабий тилининг лексик-семантик ва стилистик хусусиятлари (XX асрнинг биринчи ярми вақтли матбуот материаллари асосида). -Тошкент: Фан, 1986.-124 б.

⁶³ Ўринбоев Б., Ўринбоева Д. Ҳозирги ўзбек тилининг сўзлашув услуби. -Тошкент: Фан, 1991. - 160 б.

undosh» birikmasi «juo'an dao'ıssız», «qattiq valyuta» birikmasi «turaqlı valyuta» deb aytiladi.⁶⁴

Kim Byong Il o'z nomzodlik dissertasiyasida o'zbek tilidagi har xil affiksli o'zakdosh sifatlarning ayrim semantik-grammatik va uslubiy xususiyatlarini aniqlashga intilgan. Olim *aybli // aybdor, yelkali// yelkador, mantiqli // mantiqiy, ta'sirli // ta'sirchan, baxayr - xayrli, bo'ydor // bo'yli, baquvvat // quvvatli, jarangdor // jarangli* singari bir o'zakli sinonim sifatlarning ma'nosi va qo'llanish xususiyatlariga doyr nozik kuzatishlarni amalga oshirgan.⁶⁵

F.Najmiddinov nomzodlik dissertasiyasida belgi bildiruvchi adyektiv leksemalarning semalarini aniqlab, ularning to'liq tasnifini keltirib o'tadi. Ishda adyektiv leksemalar shartli ravishda empirik sifatlar va rasional sifatlarga ajratilgan. Empirik sifatlar ishda quyidagi mikroma'no guruhlariga bo'lingan: a) ko'rish orqali ifodalangan sifatlar: *qora, yashil, binafsha, shaftoli rang* kabi; b) eshitish orqali ifodalangan sifatlar: *baland, past, yo'gon*; v) hid ma'nolarini ifodalovchi sifatlar: *badbo'y, qo'lansa, sassiq, xushbo'y*; g) badan va tern a'zolari orqali sezish ma'nolarini ifodalovchi adyektiv leksemalar: *nam, ho'l, issiq, qaynoq*; d) odam muskul a'zolari orqali seziladigan ma'nolarni ifodalovchi sifatlar: *yengil, ozir, qattiq*; ye) bir necha sezgi organlari orqali ifodalangan sifatlar: *go'r, xom, pishiq* kabi. Ishda rasional sifatlar ham o'z navbatida to'rt guruhga ajratib tahlil qilingan: a) inson sifati va xususiyatlarini ifodalovchi adyektiv leksemalar: *tejamkor, tantanali, iqtidorli, keksa*; b) hayvon sifati va xususiyatlarini ifodalovchi adyektiv leksemalar: *yirtqich, zotdor, zotli*; v) narsa va predmet sifatlarini ifodalovchi adyektiv leksemalar: *zaharli, mustahkam*; g) odam va hayvon

⁶⁴ Курбониязов Г.А. Ҳозирги ўзбек ва қорақалпоқ адабий тилларидаги қаттиқ ва қатты лексемаларининг қиёсий таҳлили, НДА. -Тошкент: 1998. - 24 б.

⁶⁵ Ким Бёнг Иль. Семантико-грамматические и стилистические особенности однокоренных параллельных прилагательных с различной аффиксальной частью в современном ўзбекском языке, Автореф. дис... канд.филол.наук. -Ташкент: 2000. -28 с.

sifatlarini ifodalovchi adyektiv leksemalar: *chiroyli, bejirim* kabi.⁶⁶ Ishda adyektiv leksemalarda tasniflangan tushunchaviy leksik-grammatik va subyektiv-modal yo'nalishlarga birlashgan 17 turdagi semalarning birlariga munosabati semalararo munosabatni tashkil etishi aniqlangan, bu semalararo munosabatlar oppozitiv, konversiv, sintagmatik, diffuziyali, implikasion kabi turlarda mavjud bo'lishi ko'rsatib berilgan.

Z.Mamarajabova «O'zbek tilida sifatlarning konnotativ ma'nolari» mavzusidagi dissetasiyasida xarakter-xususiyat, holat, rang-tus, shakl-ko'rinish, hajm-o'lchov, ma'za-ta'm, hid, vazn og'irlik ma'nolarini anglatuvchi va o'rin-paytga munosabat bildiruvchi sifatlarning dennotativ hamda konnotativ ma'nolari tahlil etilgan.⁶⁷

Akademik lisey talabalari uchun yaratilgan «Hozirgi o'zbek adabiy tili» darsligida «Sifat va uning uslubiyati», «Sifat darajalarining uslubiy xususiyatlari», «Sifat yasovchi qo'shimchalarning uslubiy xususiyatlari» kabi *badbo'y, qo'lansa, sassiq, xushbo'y*; g) badan va tern a'zolari orqali sezish ma'nolarini ifodalovchi adyektiv leksemalar: *nam, ho'l, issiq, qaynoq*; d) odam muskul a'zolari orqali seziladigan ma'nolarni ifodalovchi sifatlar: *yengil, ogir, qattiq*; ye) bir necha sezgi organlari orqali ifodalangan sifatlar: *go'r, xom, pishiq* kabi. Ishda rasional sifatlar ham o'z navbatida to'rt guruhga ajratib tahlil qilingan: a) inson sifat va xususiyatlarini ifodalovchi adyektiv leksemalar: *tejamkor, tantanali, iqtidorli, keksa*; b) hayvon sifat va xususiyatlarini ifodalovchi adyektiv leksemalar: *yirtqich, zotdor, zotli*; v) narsa va predmet sifatlarini ifodalovchi adyektiv leksemalar: *zaharli, mustahkam*; g) odam va hayvon sifatlarini ifodalovchi adyektiv leksemalar:

⁶⁶ Нажмиддинов Ф. Сифатларнинг асосий маъно гуруҳларини ўрганишда ўқувчиларнинг ижодий ишлари // Тил ва адабиёт таълими, 2000, № 5. - 15-17-б.

⁶⁷ Мамаражабова З. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив маънолари. Тошкент: 2004.-246.

chiroyli, bejirim kabi.⁶⁸ Ishda adyektiv leksemalarda tasniflangan tushunchaviy leksik-grammatik va subyektiv-modal yo'nalishlarga birlashgan 17 turdagi semalarning bir-birlariga munosabati semalararo munosabatni tashkil etishi aniqlangan, bu semalararo munosabatlar oppozitiv, konversiv, sintagmatik, diffuziyali, implikasion kabi turlarda mavjud bo'lishi ko'rsatib berilgan.

Z.Mamarajabova «O'zbek tilida sifatlarning konnotativ ma'nolari» mavzusidagi dissetasiyasida xarakter-xususiyat, holat, rang-tus, shakl-ko'rinish, hajm-o'lchov, ma'za-ta'm, hid, vazn og'irlik ma'nolarini anglatuvchi va o'rin-paytga munosabat bildiruvchi sifatlarning dennotativ hamda konnotativ ma'nolari tahlil etilgan.⁶⁹

Akademik lisey talabalari uchun yaratilgan «Hozirgi o'zbek adabiy tili» darsligida «Sifat va uning uslubiyati», «Sifat darajalarining uslubiy xususiyatlari», «Sifat yasovchi qo'shimchalarning uslubiy xususiyatlari» kabi mavzularni o'rganishga alohida o'rin berilgan.⁷⁰ Bu darslikda to'g'ri ta'kidlanganidek, «sifat yasovchi *-li* qo'shimchasi *-dor, -kor* qo'shimchalari va *ba-* old ko'shimchasi bilan sinonimik munosabatda bo'ladi, shuning uchun ularni birining o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin. Masalan, *go'shtli-go'shtdor, gunohli-gunohkor, mazali-bamaza* kabi; lekin doimo ham ularni bir-biri bilan almashtirish mumkin emas. Masalan, *yurakli, kuchli so'zlarini bayurak, yurakdor, yurakkor, kuchdor, bakuch, kuchkor* deb bo'lmaydi... Shunga ko'ra sifat yasovchi qo'shimchalardan o'rinli foydalanish katta ahamiyatga ega».⁷¹

⁶⁸ Нажмиддинов Ф. Сифатларнинг асосий маъно гуруҳларини ўрганишда ўқувчиларнинг ижодай ишлари // Тил ва адабиёт таълими. 2000. № 5. - 15-17-б.

⁶⁹ Мамаражабова З. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив маънолари. –*Тошкент: 2904. -245.*

⁷⁰ Нурмонов А., Собиров А., Юсупова Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2002. - 352 б.

⁷¹ Нурмонов А., Собиров А., Юсупова Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2002. - 352 б.

Umuman olganda, «sifat so'zlarining o'zaro sinonimiyasi, ularning turli nutq uslublarida farqlanishi, sifat darajalarini hosil qiluvchi shakllarning ma'no farqlari, nihoyat, badiiy adabiyotdagi epitetlarning sifatlardan ifodalanishi bu turkum so'zlarning boy uslubiy imkoniyatlarini ko'rsatadi».⁷²

Shu bilan birga, SLarning semantik-uslubiy xususiyatlari ular birikib kelgan ot va otlashgan so'zlarning ma'no nozikliklarini hisobga olgandagina to'la anglashiladi.

Tilshunoslikda sifat so'z turkumini o'rganish bo'yicha yaratilgan ishlar, ulardagi ziddiyatli fikrlar to'g'risidagi o'z mulohazalarimizni yakunlar ekanmiz, taniqli olim A.N.Samoylovichning quyidagi mulohazalarini keltirmoqchimiz. 1 -butunittifoq turkologik syezdda A.Samoylovich ma'ruza qilib, obrazli tarzda «jonli turkiy tillar ulkan maydonlarda yastanib yotgan qo'riqni eslatadi, bu qo'riqni ilk tadqiqotchining plugi ag'darib o'tgan, ammo faqat bir marotaba ag'darib o'tgan, xolos. Kelgusidagi vazifalarimiz bir marta ishlov berilgan qo'riqni intensiv o'zlashtirishdan iboratdir», - degan edi.⁷³ Bu fikrlar bugungi kunda ham o'z qadrini yo'qotgan emas. Yuqoridagi obrazli fikrni biz turkiy tillar, jumladan o'zbek tilining bugungi kundagi uslubiy imkoniyatlarini chuqurroq o'rganishga ham tadbiq etishimiz mumkin.

SIFAT: Eski o'zbek tilidagi sifatlar ham xarakteriga kura ikki gruppaga bo'linadi: 1) asliy sifatlar; 2) nisbiy sifatlar.

I. Asliy sifatlar eski o'zbek tilida ham hozirgi o'zbek tilidagidek predmetning rangi, tusi, hajmi, shakli kabi ma'nolarni bildirish uchun xizmat qiladi. Mas.: *qara sач халқасы* (Лутф., 174 а), *сарығ йуз* (Сакк., 22 а), *ширин сээ* (Сакк., 15 а), *сучук евз* (Отойи, 73 а), *аччығ тил* (Нав. МҚ, 125), *йахшы мэвасы будур* (БН, 366); *йаман, катив манзили* (Нав. МҚ,

⁷² Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси (грамматика). -Тошкент: Ўқитувчи, 1992. - 160 б.

⁷³ Первый Всесоюзный тюркологический съезд (26 февраля - 6 марта 1926 г.), стенографический отчет. - Баку: 1926. - 237 с.

31); *узун йаш* (Лутф., 213 а), *улуз кабила тақы кичик кабила* (Таф., 47 б), *йицы ай* (Отойи, 18 б), *эски шал ёифат* у 1 (Отойи, 12 б), *қары киши* (Ш. тар., 47), *тоғры йол* (Лутф., 189 б).

II. Nisbiy sifatlar turli so'zlarga sifat yasovchi maxsus affikslar orttirish yo'li bilan xreil bo'ladi (bu haqda quyida maxsus to'xtaladi).

SIFAT YaSALIShI: Eski o'zbek tilida ham sifat morfologik (affiksa syya) va sintaktik (kompozisiya) yo'llar bilan yasalgan.

1. Sintaktik yo'l bilan sifat yasalishi odatdagicha bo'lib, bunday sifatlar qo'shma yoki juft so'zlar formasida bo'ladi. Mas: *қара йузлук башы* (Нав." МҚ, 31); *қара тамғалық ай* (Лутф., 212 б), *кек йаллуз бери* (УН, 38), *турлук-турлук таам-лар* (Рабғ., 57 б), *қаттиқ-қаттық аваз* (Ш. турк, 12); *наст-наст тикднлэр* (БН, 174).

2. Morfologik pul bilan ismlardan va fe'llardan sifat yasaladi.

Ismdan sifat yasovchi affikslar: *-лық / -лик / -лым / -лиг (-луқ/-лук/-луғ/луғ)* affiksi (fonetik variantlari haqida «Ot yasalishi» bo'limiga qarang: §41).

Eski o'zbek tilida bu affiks ot yasashda ham, sifat yasashda ham mahsuldor bo'lgan (Qar.: §§ 41, 42).

Bu affiks bilan yasalgan sifat so'z o'zagida ifodalangan predmet, belgi, xususiyatga egalikni bildiradi. Mas: *Башир а т л ы з оғлы бар эрди* (Рабғ., 70 а). *Йақшы к в р к л у з бир қыз эрди* (УН, 28). *Айа, гул ч э ҳ р а л и к сарв-у раваним* (Отойи, 38 а). *Саре б о илу к лила рухсарым қаны?* (Нав. ЛТ, 120). *Тағлары тамам ар чалы қ қалын болур* (БН, 173). *Куйди бу зам билэ м у ц л у з щины* (ШН, 175).

-лы -ли!-лу!-лу affiksi. Lab unlisi bilan kel-gan *-lu/-lu* variantlari odatda tarkibida (oxirgi bo'g'inida) lab unlisi bo'lgan so'zlarga qo'shiladi. Lekin uning aksicha bo'lish hollari ham kuzatiladi. Qiyoslang: *ай йузлу дилбар* (МН, 302 а), *татлу хурма* (Таф., 18 а), *кезлэри сурмалу,.. от-туз*

уч йаишу (Таф., 69 а), *нарғис квзли, ширин сээли* (МН, 308 б), *йазуқлы Саккакий* (Сакк., 17 б).

Bu affiks bilan yasalgan sifatlar ham soʻz oʻzagidan ang-lashilgan predmet, belgi, xususiyatga egalikni bildiradi. Mas: *Булар халқлар ичиндэ қаттық қеқуллу турур* (Таф., 45 б). *Кэл, эй ай й уз л у дилбар, тут бирэр куш* (МН, 302 а). *Бир дам рақиб элкидин қашындаЦквз йаишы мэңизли, тур-са болмас* (Лутф., 190 а), *Улуз да в л а т л ы... болғусы турур* (Ш. тар., 14). *Ҳирматлы газэт окуғучыларға маълум* (Фурк. II, 154).

«Tafsir»da bu affiks takrorlanib qoʻllanib (-ли —ли), bogʻlovchi vazifasini ham bajargan. Mas: *Йэтти ту клику или ул бостан ичиндэ қалды* (Таф., 12 а). *Азрылмақлық турур мэнли-сэнли ара* (Таф., 11 а). bu misollarda *тунли-кунли, мэнли-сэнли* формалари «тун ва кун», «мэн ва сэн» maʼnosi boʻlib, bundagi -ли^ли bogʻlovchi vazifasida keladi.

~лы/лиЦ-лу/лу affeksi -лыз/-лыцЦ-лиз/лик (-луз/-луқ \|-луз\| -луқ) affiksidan rivojlangan. Yuqorida aytilganidek, -лыз/-лық/ли/лиз/лик affeksi oʻtmishda ham ot yasovchi, ham sifat yasovchi vazifasini bajargan (Қар.: § 41). -лы/-ли// -лу/-лу affeksi shakillangach, -лыз/-лық/ли/лиз/лик affiksining funksiyasi chegaralanib, asosan, ot yasash vazifasini bajaradigan boʻlgan.

-лы/-ли// -лу/-лу affeksi bilan sifat yasalishi eski oʻzbek tilida juda kam uchraydigan hodisa boʻlib, asosan, XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda kuzatiladi. Oʻzbek tilida bu affiks bilan yasalgan sifatlarning aktiv qoʻllanishi keyingi davrlardan, asosan, XX asr boshlaridan — oʻzbek milliy adabiy tilining shakllanish davrlaridan boshlangan.

Ugʻuz gruppasiga oid turkiy tillarda, masalan, ozarbayjon tilida bu affiks ancha qadimdan shakllangan boʻlib, sifat yasashda aktiv qoʻllanib kelgan.

-суз -суз -суз affeksi maʼno jihatdan yuqori-dagi affikslarning antoiimi hisoblanadi, yaʼni bu affiks bilan yasalgan sifat soʻz oʻzagidan anglashilgan

predmet, belgi, xususiyatning yo'qligini ko'rsatadi. Bu affiks asosan ot va kishilik olmoshlaridan sifat yasaydi. Mas: *Қапуғың этики йарағсыз туруп* (Рабғ., 31 б). *Васл ноты дунйада болмас, Атайи, н ише и з* (Отойи, 44 а). *В афасыз бэ-ҳайалар аларны цнутубтурлар* (Нав₁ МҚ, 114). *Бадасыз йоқ эди бир вайрана* (ШН, 104). *М а л с ы з л ы қ ы н у н у т д ы* (Ш. тар., 44). *Жан-у кичулдэ йоқтур сэн сиз карар-у арам* (Фурк. II, 77).

Bu affiks tarkibidagi lab garmoniyasining ta'sirida izchillik yo'q. Qiyoslang: *йолсуз* (Рабғ., 137 а), *йазуқсыз* (Таф., 38 б; Рабғ., 90 б), *булутсыз* (Лутф., 217 а).

Eski o'zbek tilida *-be* prefiksi bilan yasalgan sifatlar ham ancha keng qo'llangan. Bu sifatlar eron tillaridan o'zlashtirilgan bo'lib, ma'no jihatdan *-сыз/-сиз//-суз/-суз* affiksi bilan yasalgan sifatga yaqinturadi. Mas: *Алдық б э чар а Лутфий кеңлини* (Лутф., 214 а). *Бэниқаб чық-қыл уйуңдын* (Отойи, 16 а). *Йалған евз дэгучи сезин бэъ-этибйр кылур* (Нав. МҚ, 162). *Б э фа х м-у бэвафи ва харамнамак киши эди* (БН, 36). *Қылмасайдың бэвафа-лик кашкэ* (Фурк, I, 97).

-қы -ки -ғы -ги affiksi payt va o'rin bildiruvchi so'zlarga qo'shilib, paytga, o'ringa munosabatni, hoslikni ko'rsatadi. Mas: *Мэқэ қышқы нэьматны йай бэрур эрдиң, йай-қы мэваны қыш бэрур эрдиң* (Таф., 18а). *Байакы ара-ойи йана кэлды* (Рабғ, 52 а). *Ул бурунқы аҳд-у пайман цайдадур* (Лутф, 221 б). *Даимғы дастур билэ... захир болгай* (Нав. Мнш, 15). *Ташқарығы лашкар мулаҳаза-сы билэ... бара алмаслар* (БН, 259). *Ташицы эл барча бу ишни билди* (ШН, 64). *Оғуз соңғы алған хатуныны еэвэр* (Ш. тар, 15).

-дақы -дэки -дағы -дэги affiksi. Bu affiks tu-zilish jihatdan murakkab bo'lib, o'rin-payt kelishigi *[-да-дэ]* affeksigasifat yasovchi *-қы/-ки//-ғы/-ги* affiksi qo'shilishi bilan hosil bo'lgan.

Bu affiks ham o'rin va payt bildiruvchi so'zlarga qo'shilib, o'ringa, paytga munosabatni bildiruvchi sifat yasaydi. Mas: *Қэлтургил тацдақы ашымызны* (Таф, 10 б). *Ул кэнд-дэги кишилэр кэлиб турур* (Рабғ, 66 а). *Икки кез йолыдын твккдй и у рэкимдэ г и қанымны* (Сакк, 22 а). *Ҳинду-стандагы бэглэргэ хукм болды ким,..* (БН, 334). *Анд а-гы эл йузидин кэткэндур* (ШН, 152). *Мэниқ кецулум дэги аҳвал б&лэк адамларга маълум эмэсдур* (Фурқ. II, 131).

Fe'ldan sifat yasovchi affekslar. -г-қ -к (undoshdan keyin: -ыг -ық -ик -уг -уқ -ук) affiksi fe'l o'zagidan anglashilgan harakat yoki holat bilan bog'liq bo'lgan belgini bildiradi. Mas: *Қуруғ таиш узэ олтурса эрди* (Таф, 10 а). *Қаттық гурбат ара хальиц нэ эркинЦаччық фурқатда аҳвалыц нэ эркин?* (Нав. ФШ, 172). *Дэгэй-сэн ким, йатыбдур бир кэсук баиш* (Нав. МК, 7). *Бу руд қуруқ руддур, мунда ҳаргээ сув болмас* (БН, 190). *Болман ашифта б узу к кишвар учун* (ШН, 155). *Б у з у г эл хатирини шад этти* (ШН, 81).

Eski o'zbek tilida fe'ldan sifat yasovchi yana ayrim affikslar mavjud bo'lib, ularning qo'llanishi ancha chegaralangan va ba'zi fe'llardangina sifat yasaydi. Bulardan quyi-dagilarni ko'rsatish mumkin:

-ун — *Йузи то лун ай-тэк болгай* (Таф, 61 б). *Нэдин т о л у н ай йузуц илэ хусн талашур?* (Отойи, 20 б).

-ри — *Қуйы э г р и л и г и чындур* (Лутф, 180 б).

Sifat darajalari. Eski o'zbek tilida ham sifatning qiyosiy va orttirma darajalarini ifodalovchi maxsus formalar mavjud bo'lgan.

Qiyosiy daraja. Sifatlarda qiyosiy darajani ifodalash uchun quyidagi usullardan foydalanilgan.

Sintaktik usul. Bu **usul** sifatga **-ras-rek** affiksini orttirish yo'li bilan hosil bo'ladi. Qiyosiy darajaning bu formasi sifatda ifodalangan belgining kamligini, kuchsizligini ko'rsatadi. Mas: *Ул йахшырақ турур сизгэ* (Таф.,

77 б). *Қайу эт тат л ырақ ^болса,..* (Рабғ., 16 б). *У л у л у р-рақ киши худ Шайх Қамал эрмиш ким,..* (Нав. МН, 46). *Иана бир буднадур.., қызылр ақ ранги бар* (БН, 362). *Бизлэрға халифа Ахмадийн намлик бир каттарақ бала эрди* (Фурқ. II, 133).

-*рақ/-рэк* affiksi ravishlarga, miqdor bildiruvchi so'zlarga, umuman, harakat yoki holat belgisini ko'rsatuvchi so'zlarga qo'shilganda, harakat yoki holat belgisining kamligini ko'rsatadi: *тэзрэк йурди, кепрэк кэлтирди, азрақ бэрди* kabi («Ra-vish» bo'limiga qarang: § 313).

Analitik usul. Bu usul chiqish kelishigi affiksi yordamida hosil bo'ladi. Mas: *Жандын а р т у қ мэхрибанымға салаж_* (Лутф., 222 б). *Эй щанд ын арт у қ еэвгэним, касд этмэ ахир щ а н ы м а* (Сакк., 17 б). *М ундын й а х ш ы ат болмас* (Ш. тар, 44).

Eski o'zbek tilida bu usul nisbatan kam qo'llangan.

Murakkab usul. Bu usul sintaktik va analitik usullarning birikuvidan hosil bo'lib, eski o'zbek tilida keng iste'molda bo'lgan. Mas: *Қамугдын аз из рок достум Му-хаммад туруп* (Рабғ, 95 а). *взгэлэрник в ас лыдын йа х-шы р ақ мэкэ бу интизар* (Отойи, 19а). *Анд ын қ атт ы қ-р ақ хал бардур* (Нав. МК, 170). *Анд ын эътибар рақ ва эхтийаррақ киши йоқ эди* (БН, 197). *Паш билэ дагы кичикрэк б ар ыд ы нЦбахт илэ бары б и й икр э к бар ы-д ы н* (ШН, 153). *М у н д ы н й а х ш ы р а к гуваҳ болмас* (Ш. тар., 54).

Orttirma daraja. Eski o'zbek tilida sifatlardagi orttirma daraja ma'nosi asosan *бэхад, биейар, гайат, асру* kabi so'zlar yordamida ifodalangan. Mas: *Ишқ. бэхад йырақ дуруп андын* (Нав. СС, 60). *Тала оты биейар йахшы болур* (БН, 167). *Қой билэ мэвамыз асру кептур* (ШН, 52).

XIII—XIV asrlarda sifatlardagi orttirma daraja ma'nosi *yavlaq* (juda, eng) so'zi orqali ifodalangan. Mas: *Йав-лақ йахишы ҳукм қылмыш* (Таф, 39 б). *Сара йавлақ керклук эрди* (Рабғ, 28 б).

Belgining ortiqligi yoki kamligini ifodalovchi formalar.

Belgining ortiqligini ifodalovchi formalar. Bular intensiv formalar nomi bilan ham ataladi.

Intensiv formalarning tuzilishi bo'yicha eski o'zbek tili bilan hozirgi o'zbek tili o'rtasida deyarli farq yo'q. Navoiy o'zining «Muhokamatul lug'atayn» asarida bunday formalar haqida gapirib, quyidagi misollarni keltirgan: *ап-нақ, қап-кара, қып-қызыл, йуп-йумалағ, йап-йассы, ап-ачығ, чуп-чуқур, кем-кек, йдм-йэишл, бом-боз* (Нав. МЛ, 188).

Misollar: *Ануң баишы соғуқтан анақ туруп* (УН, 47). *Хэч ким жаханда кермэди оқ йаны қап-қара* (Лутф., 213 а). *Бу иол т у п-т у з йолдур* (БН, 160). *Мэн сап-сағ туруб, бир белдк езини маси шараб* қылғайлар (БН, 304). *Сухан таишы хуиранг қып-қызыл боладур* (БН, 164).

Qiyoslang: *ап-ақ, кеп-көкЦкем-көк, эп-дзгу, сап-сарығ, еп-еруң* (орпоқ), *йап-йазы* (теп-tekis), *йап-йашыл* (МК, I, 70, 71, 316, 317, 355; III, 26).

Intensiv forma bir xil sifatning aynan takrorlanish yo'li bilan ham hosil bo'ladi. Mas: *Қабалалары КөЦ-көң, ағызлары тар* (Нав. МЛ, 181). *У л у э-у л у э гуллар қуйру-ғының учигэчэ бардур* (БН, 359), *Йургэндд қаттық-қат-ты қ аваз қылу* (Ш. турк, 12). *Й ахишы-йа хишы мунда та биз-дөк йаманлар, ассалам* (Мук, 115). *К атт а-катт а мойсафидлэр* (Мук, 73).

Belgining kamligini ifodalovchi formalar quidagi yo'llar bilan hosil bo'ladi:

а) asliy sifatlarga (y)мтул (y)мтул, -ныл-чил affekslari qo'shiladi. Mas: қызымтул, қарамтул, ағымтул, йашымтул (Маб. луг.). квкумтул (Абушқа), ақчыл (Сангл.);

б) Sifatlarga *гына!-гинэ* affeksi qo'shiladi. Mas: Я а х ш ы гына табъ насиби болубтур (Нав. МН, 124). Иана биргинэ уйдур, к и ч и ккин э уйдур (БН, 358). И а х ш ы-гына мазасы бар (БН, 368). Катта ва йа к и ч к и н э бол-чай Жошам болсун васат (Мук, 115).

XI-XIV asr yozma yodgorliklari tilidagi maxsus qo`shimchalar sermahsul affikslar bo`lib sifat hosil qilishda keng istemolda bo`ladi. Bu yodgorliklar ishni tashkil etar ekanmiz, qo`shimchalarni turli so`z yasashga guvoh bo`lamiz.

- a) Predmetning rangi ala (NF, 2861; arg`uvon (XIII, 9a 19); aq (n.f. 20a 15; XIII, 22a 16); ahmar (g, 184a2); zangä (g, 47 a 6; XIII, 14 a 9); yaruq (nf, 121 b 6; XIII, 30 b 18); yag`ыз (g, 125 b 13); qara (Mn., 303 a 2; G, 14 b 7; Nf, 19 b 4; XIII 103 a 20);
- b) predmetning fizik holati alyg` (XIII, 57 a 19); aqsaq (XIII, 57 b 20); axvol (g, 167 b 8).
- c) Vaqt va makon munosabati doirasida belgini aniqlash abay (Nf, 115 b 8); azay (nf, 115 b 7); astыng`ы (Nf, 54a4); asmali (XIII, 78 b12); ertegi (XIII, 89 b 14); boyaqi – boyag`ы (XIII, 32 a 11); G, 162 b 5); bayig` (XIII, 78 a3); Ashluqi (XIII, 58 a 18) Bahary (G, 182 b2); bildurqы – bilgurg`ы (Nf, 24 a 17; 155 b16); yaryыqы – yaryыng`ы (XIII, 91 a 18; 53 a 4).
- d) Belgining bo`lkka bo`linishiga ko`ra atly (XIII, 95b 4; G, 46 f 13); atlig` (If, 2b3; XIII, 110 a, b); aqchalы (G, aa b 6); erksh (XIII, 107 a, 19); emcheksh (XIII, 54 b 3); baxshishli (G, 27 a 2); belgin (G, 137 b 10); boylы (G, ab 11); vafälig` (XIII, 66 b, 8); zaharlik (XIII, 86 a 9); puchli – puchlu (G, 155, b 11; 32 a8).
- e) Predmetning turli xil holati, har xil belgilariga ko`ra: Baqäsiz (Mn, 308 a 5); biliksiz (G, 46 b 4; XIII, 68 b 21); ыыг`- ыыq – ы: yerinli – yerinlik (Mn7, 171 b 9; Mn., 308 a 5; XIII, 35 b 1) ot yerni bag`li – bag`lig` (G, 150 b 3, 99 b 2; XIII, 110 b 3; 90 b 13; 43 b 15; 32 b 1; Nf, 114 a 6; 79 b 1; 105 a 14; XIII, 79 b 2; 92 a 6) ot bog`; bilinli biliklik (ish, 50 a 5; Nf, 151 b 13 ot zindon
- chылыq (-chy+lyq) atunchылыq (XIII, 52 b 16) oty altun; afsunсылыq (XIII, 52 b 16) ot altun; afsunсылыq (XIII, 54 b b 14).

- ЛЫ: aqlы (XIII, 44 b 4) ot oq; korkli kormu-korli (XIII, 70 b 13; Nf, 95 b 8; XIII, 51 a 10; 111 b 1) korsh (XIII, 70 b 13; Nf, 95 b 8; XIII, 51 a 10; 111 b 1). In., 301 a 10); atлы XIII, a 5 b 4; G, 46 a 13). Erksh (XIII, 107 a 19); bahalı (G, 97 b 9).

- сыз – suz: yalsuz (XIII 39 a2); aqсыз – asuz (XIII, 40 b 17; G, 67 a1; XIII, 39 a 14; 98 a 4); biliksiz (G, 46 b 4; XIII, 68 b 21); vafasыз (G, 117 a 2; Mn., 308 a 4; XIII, 50 b 5); yazuqsuz (G, 33 a 13; XIII, 10 a 2); yuasyz (XIII, 10 8 a 7).

- suzluk - sualuk/ - сызлыq / -sizlik: arыг`sialiq (Nf, 35 a 4); biliksizlik (XIII, 58 b 6; 88 a 13); vafasызliq (g, 36 a 1; Mn, 308 5; XIII, 54 a 14); davlatsызliq (XIII, 66 a 2). Almoq satmoq (nf, 116 a 2); ulug` pichi (G, 94 b 8). Aзын азын (XIII, 38 a 20); arqun arqun (XIII, 78 a 14); лыq – lug`, лыг` - lug`.

a) yodgorliklar tilida ushbu tushunchalar pradmetning muayyan belgiga ega ekanligini bildiradi. –лыг` -лыq: bazlug` (Nf, 12 a 15; XIII, 75 a 9) azig`lig` (XIII, 103 b 3), barkluk (XIII, 74 a5), otbork; atlig`; atlig` (Nf, 6 b 9; XIII, 93 a2) ot at; atlig` (Nf, 70 b 14; 10 a 6) ot at liq, luq:

jaduluq (XIII, 98 b 18) ot xodu (XIII, 33 a 7); bazirganlig` (Nfm 208 b 10) ot bazirgan (nf, 118 b s),.

b) predmetning holatiga ko`ra belgiga ega bo`lishiga anglatadi. Ayliq (Nf, 32 a 7) ot ay.

g) arslanliq (XIII, 93 a 15) ot arslan; axmoqliq (Nf, 213 a 1) ot axmoq, erik – erlik (G, 77 a 12; Nf, 152 a 12; XIII, 113 b 16) ot er

yuk: tilkyulyk (XIII, 42 a 13), ot tilku (Mn., 21 a 1; XIII, 35 b 1; Nf, 33 a 14) ot kerak.

-lik, -lug`: ilik (XIII, 25 a 3; Nf, 10 b 3) ot el; ashug`lug` (XIII, 68 a 5; 70 a 11) ot oshun (XIII aa b 13).

-чы / -chi: bashчы (XIII, 111 a 19); bag`chi (XIII, 9 a 7), bayatchi (Nf, 98 01); bitikchi (XIII, 70 b 6 ; Nf, 62 a 6); yolchi (Nf, 2 b 1); abrы (XIII, 33 a 8) ; afsunchы (XIII, 17 a 9 ) atafsun (XIII, 12 a2); yang`uchi (G, 157 a 1) yong`ug` (G, 32 b 7; XIII, 34 a 4); yelchi (Nf, 39 b 12; XIII, 23 b 18);

-dosh: evdosh (G, 13 b 1) ot ev: kong`uldosh (XIII, 57 b 15) yoldosh (G, 50 b 3; XIII, 116 a 15); qarindash (G, 10 a 9; 16 a b 10; XIII, 12 b 16); qaldash (G, 77 a 3; Nf, 62 b 3).

-g`ы . – gi, - қы .- ki: soqqi (XIII, 91 a 15); Avvalqi –avvalg`I (Nf, 2 b 2; XIII, 38 b 15; Mn, 295 b 5); ot avval (Nf, 5 a 3; 2 a 12; XIII, 79 a 5; G, 121 b 11; 145 b 6); ashnug`ы (XIII, 58 a 18) ot anshu (XIII, 89 a 3; 111 b 1) astыng`ы (Nf, 54 a 4).

-q / -k / g` /g bezak (Nf, 121 a 9) ot beza; yamog` (Nf, 201 a 10); aldag` (XIII, 52 b 7); atag` (XIII, 117 a2); ag`rig` (Nf, 84 b 2; XIII, 88 a 13); emgak (Nf, 15 a 10; XIII, 64 a 9); emyk (Nf, 160 b 11).

Бычак (Nf, 42 a 9).

Arsag` (XIII, 88 b 16).

-q/ -k/ -g/ -g: batыg` (XIII, 78 a 3); evak (Nf, 219 a 3); achuq (G, 92 b 13; Nf, 2 a 16; XIII, 19 b 10); ersuk (XIII, 23 b 13; Mn, 307 b 3; Nf, 183 a 1; G, 39 b 7).

-sh: a) batыsh (Nf, 19 b 15); alturush (XIII, 73 a 4); bilish (G, 128 ab; XIII, 23 a 17); bitish (G, 14 a 7); karish (XIII, a b 3); axshash (XIII, 114 b 21); apush (G, 128 b 6).

b) yurush (Nf, 79 b 1; XIII, 13 b 7).

-ch / -ach: ishanch (XIII, 6 a 2).

-m : kozim (XIII, 112 b 17); ichim (XIII, 73 a 11; Nf, 148 b 4; G, 12 b 2); egrish (G, 44 a 7; XIII, 71 b 13).

Chaynash (Nf, 213 b 13).

-moq, -mak : eshitmak (Nf, 31 a 10); bormoq (XIII, 48 a 02).

-moqlыk, -moqlik: eymenaklik (XIII, 2 b 17); biturmaklik (XIII, 25 b a; bulushmaklyq (XIII, 17 b 16); kechrushmaklik (XIII, 104 a 21); koryushaklik (G, 66 b 8).

-қы, -ki, -qu, -g`ы, -gi, -g`u, -g`u, -gu: yanqы (XIII, 113 a 2) ichku (XIII, 20 b 13); tatgy (XIII, 52 b 13)

-N: bichim (G, 135 b 6); aqын (G, 183 b 3); rkin (Nf, 168 a9; XIII, 50 a 10); satuni, satын (G, 109 a 6; 68 a 11); aзын (XIII, 67 b 20); aзыр (XIII, 34 a 9).

-ma: Yog`ma (XIII, 113 b 18).

G`uchы / -guchi: alg`uchы (Nf, 192 a 4); bitiguchi (Nf, 40, a 12); bitilchi (G, 26 82; Nf, 207, b 9: 125 a 12: XIII, 82 a 9; 93 a 12; Nf, 207 b 14); ag`irсы (XIII, 102 b 3); уанысы – уанысы (XIII, 63 b 5; Nf, 20 b 6).

-sul: yoqsul (G, 19 a 3; XIII, 58 b 3).

-la: kurla(G, 45 a 7; XIII, 58 b 13); yaqla / yaqыla (G, 12 a 13; Nf, 38 b 8; 39 a 8); qatla (Mn, 309 a 2); XIII, 16 b 10.

-tuq / duq: qaltuq (G, 52 b 3; 43 a 17); burunduq (82 a 13).

-suq: Bag`irsuq- bag`ыrsuq (Nf, 7 a ;G, 144 b n); taqsuq (G, 113 b 10; XIII, 13 b 3);

-chaq, -kak, -kek, -n –ken, -muk, -mak: алын(G, 32 b 2; 80 a 7; Nf, 28 b 1; XIII, 74 b 4; 101 a 12); erkey (Nf, 174 b 16).

-mgul : qoramtul (Nf, 171 a14).

-t: ogut (G, 142 b 13; XIII, 74 b 14); sarkut- sarqыt (XIII, 35 b 9; G, 17 a 8).

-lag- la+g: qamyshlag` (XIII, 45 a 7); suvlag` (XIII, 27 b 21).

-a, -ы, -u, I, y, : bilish (G, 90 a 8); qarqu (G, 140 b 9) yaxshы (G, 31 a 13; MN., 296 b 9; Nf, 35 b 16; XIII, 10 a 7) yora (XIII, 8 a 4).

-du , -dy, -ty, -tu: yoqtu (Mn, 290 b 2); agdy (XIII, 5 b 19); qayqu (Nf, 168 b 7).

-taq; yaburtaq (Nf, 150 b 5); XIII, 45 a 12). Targ`aq (XIII, 23 b 18; Nf, v, b 7).

-ech; kulech (G, 85 b 8).

--che: chamche (Nf, 15 a 17).

-l : usal (G, 36 b 8).

-chuq: qabarchuq (Nf, 166 b 1).

-z: yulduz (Nf, 32 a 8; XIII, 3 b 21).

-ur: bykyr (Nf, 13 b a 17); kamyр (XIII, 27 a 14). Sag`ыг (XIII, 59 b 19).

-kun-g`un, -g`un; azg`un (Nf, 153 a 4); uchqun (Nf, 12 b 12); satg`in (Nf, 57 a 15).

-qa, -g`a: qaltg`a – qaltqa (XIII, 47 b 10; 38 b 12). Asyrg`a (XIII, 112 a 13).

-g`uch: achg`uch (XIII, 79 a 17).

-cha: avuncha (XIII, 11 b 19; 78 b 9).

-la, -le; avla- avla – (XIII, 41 b 13; 20 a 3; Mn, 303 b 9; G, 14 b 6); adymla – (Nf, 75 b 9); aqla (G, 53 a 10, Nf, 10 b 4; XIII, 83 a 9; 62 a 3); atla – (XIII, 101 b 13); ag`yrla (G, 144 a 10; Nf, 211 b 6; XIII, 34 b 14); azarla (Nf, 8 a 16; XIII, 106 b 15; 110 b 4); azla (Nf, 202 a 13; XIII, 61 b 11); igle (XIII, 20 b 6).

-lan, -len: achyg`lan (XIII, 100 b 13); afqelen (XIII, 44 a 5); buzalan (G, 109 b 7); evlen (G, 137 a 12); erkyek (Nf, 210 a 12).

-a, -e, -i, -u, -y, -ы: asha (G, 82 a 3; Mn, 2 a 5 a 9; XIII, 100 a 17); bulna (XIII, 60 a 5); yarlyqa – yarlyg`a (Nf, 2 b 1; XIII, 113 b 12; 10 a 13; G, 179 a 5);

borni (XIII, 47 b 17); uзы (XIII, 69 b 9; Nf, 30 b 6); ууу – ууы (G, 102 b 11; Nf, 42 a 9; XIII, 101 b 8; 185 b 7).

-ar / -er: oqar; (Nf, 34 a 9; 193 a 9; XIII, 105 a 5); yashar (G, 12 a 13; XII, 24 b 19); sarar (XIII, 84 a 20); sarg`ar (Nf, 112 b 7; XII, 26 b 5); saryg` (G, 140 b 8; Nf, 34 a 9); 56 b 9); bulrer (Nf, 143 b 16);

-g`ar, -ger: sung`ar (Nf, 57 b 7); qutqar (XIII, 108 b 4; G, 163 a 11; Nf, 115 b 2).

-da, -de : alda (202 a7; XIII, 65 a 3; G, 17 a a); uzde (G, 32 b 9; 116 a 11; XIII, 55 a 12); unde (G, 78 b 2; Nf, 70 b 1; XIII, 8 b 19).

-lash : oshlesh (XIII, 62 b 7).

-ay: ulg`ay (Nf, 144 b 16; XIII, 109 b 11; G, 138 b 13).

-k; birik (XIII, 17 a 3; 19 a 2).

-sa, -se, -sin, -сын: ag`ырсын (Nf, 144 b14); suvsa (Nf, 22 b 17); ulg`ursyn (Nf, 189 b 11).

-ra, -re : inre (Nf, 37 b 16; XII, 41 a 20).

-sha, -she : axsha (G, 173 a 9; XIII, 90 b 5; MN, 296 b, 2 Nf, 89 b 16); yaqsha (XIII, 59 b 8).

-t: avut – авут (Nf, 54 b 4; XII, 27 a 10; XII, 47 a 13; 46 a 17); anut (XIII, 71 a 11); elet – elt (Nf, 12 a 3; 32 a 2; XIII, 40 a 7; 16 a 8; G, 33 a 4; MN, 296 b 11).

-n: авын (XIII, 105 a 1); yonen – (XIII, 25 a 16).

-chire (-chirei-) : kulchire (XIII, 82 b 5).

-ra: sachra (Nf, 175 b 7; XIII, 111 b 6).

-qын, g`ын, g`un: ычqын – чыг`ын- uchg`un (Nf, 23 b, 7; XIII, 39 b 8; XIII, 40 a 15; Nf, 183 b 7).

I) yuz suvi; yuzum suvyn xalayıq qatında tekermen (Nf, 65 a 9); san'at aqli kerek kim bir luqma uchun o`z suvin tekub, yuru megey (G, a8 a50; yuzumdin bu suvim tokmek tilersen (XIII, 43 b 8); tururma saqlayu yuzum suvin ash (XIII, 87 b 15); altı yan (boqyb altı yanimgе ishıd kazle, agar bit yani xush balmasa kizle (XIII, 13 b 130; suvlug`: kishiler kordi xusrav yuzi suvlyh, qamug` kermekke yuzun arzuyug (XIII, 26 a 16); savuq nafas: bu sazni eshitib savuq nafas bilen molik ah etin aytin (G, 18 b 1); konul aysi bu soznu konyl eyelerinden bir ki erse ashytib aytdi (G, 36 b 9); buyruq eysi sud'ya kozi kor boldi. Buyeuq eyesine berdyler buyruq eyesi aytti (G, 14 b 12).

II) yaqa tut; yala kozg`uyaqasyn tutti luqman (XIII, 51 b 3); yal acha: azin al birle shahdin kizledi al, kim esrujukda achmasun tayr yol (XIII, 102 a 21); yal ber: eger yal bormesem mahrum (XIII, 80 a 20); iy yu: men emdi m yodum barcha emdim (XIII, 49 b 6); farman yurut: yurutuq yrti iqlim uzre farmen (XIII, 6 a 10); chiqardi qach durust syındur muny teb (XII, 41 b 1).

Ash bahatur (Nf, 203 b 8); ob borq (Nf, 39 b 10);

Yoq yovuq (Nf, 5 a 11); achuq ayra, acha ayra (XIII, 106 a 1; Nf, 12 b 6); yaraq, yashyq (Nf, 23 b 8).

(Mn, 293 b 7); imarat qyldy bu ismam bag`yn, kufra kufrasyıyq al buzdy bag`yn (XIII, 4 a 10).

Taqi eqin yozuqluq kim erseler elikerikni surttiler ersa al aq tash qab-qara boldy (Nf, 20 a 15); bir quni azyg`da kozsuz erni keryb teb-tek oturmoq boldi alda vabal (G, 47 a, b); sarayuq tob-tolu gul-u rayhon (G, 69 a 11); qamug` erdemde jabdiz birle teb-ten (XIII, 30 b 10).

Asru – asrı kim esru binafadur bu zamana (MN, 29 a 11); niche kim asru yugruk orez Shabdiz, bu gulgun yugushi ham ancha erur tiz (XIII, 58 b 7).

En: en eksuk (G, 46 a 12).

Iqen ; iqen muruvvatsız (G, 22 a 9);

Yevlaq: bu xalıflık ishi yavlaq dushvar turur 9 Nf, 54 a 130; ayttı maslahatlıg`im bu yavlag` (XIII, 26 b 9).

Kez koz kozg`uda qoldım (XIII, 26 b 9).

Soq; azki soq yalg`uz olbu munda tushtum (XIII, 66 a8); qılarg`a yarashur bolsa lab mal (XIII, 73 a 80; konul bog`lab vafasızg`a ni hasil (XIII, 54 b 21); yaman birle gumurnıy zayım sitme (G, 12 b 13).

Bafasız (G, 1147, a 12; Mn., 308 a 4; XIII, 50 b 5); davlatsız (G, 159 a 12; XII, 74 b 15); koqulsuz (XIII, 57 b 14).

Abtar (nf, 32 b 20; asli (G, 170 b 2; 205 b 12); acha (G, 22 b, 7; XIII, 73 a 14; Nf, 129 b 7); achuq (Nf, 2 a 16); bosh (g, 151 b 30; buzuq (XIII 31 b 19); zag`al (G, 31 b 190; zag`al (G, 52 b 4); yaman (Nf, 9 a 1; XII, 76 b 21; G, 24 a 12); yaqıyeni (G, 303; 127 b 7; XIII, 37 b 14); yat (G, 11 a 4; XIII, 7 b 14 0; yaxshı (G, 31 a 13; Nf, 212 b 5; Mn, 296 b 9; XIII, 75 b 17); yash (XIII, 26 b 20; G, 147 a 11); yaqın (G, 54 b 12; XIII, 23 15); yitik (Nf, 1920b 6); kuchey (Nf, 31 a 16; XIII, 24 a 17).

Avla (G, 77 b 11); adna (G, 31 a 8); afzal (Nf, 117 a 8); a:la (G, 3 a 7; Mn., 296 a 10); battar (G, 102 b 6; XIII, 62 b 15).

Qavyraq (XIII, 19 b 12); suvy (Nf, 29 b 7); suvy sutdin aqrur tutur (Nf, 29 b 7); soni janımdan artuqroq severman (Mn., 299 a 4); eshek al adamaden yaxshiroq kim qilur doim pishikliq keqlin azar (G, 31 a 13).

Xusn achre javhardin arisan (Mn., 304 a 3); og`ul berdi aqa guhardin arı (XIII, 8 a 60; kim elmek yeg mumuq tak turlikimdin (XIII, 66 b 22); niche bolse zalar tazi at bir tavyle ashezden al yaxshi (G, 10 a 4); al kim erse aydı: imam Ahmad Xanbalga hurmat qılıb imandın ayın yundum (Nf, 112 a4).

Bu analım fatımanı xalachıqlerдын ezgurekinge juftlanturil; zehi arslan yurek qanrat urug`i,

UMUMIY XULOSALAR

STni ajratish uchun asos bo'ladigan ma'noviy, tarkibiy (morfologik va derivation) va birikuvchanlik (sintaktik) omillarning har birini ravishga nisbatan tekshirib ko'rganimizda quyidagicha xulosalarga keldik:

1. Mazkur turkumni boshqa mustaqil so'z turkumlaridan qat'iy farqlovchi aniq ma'noviy omil yo'q. Aniqrog'i, o'rin-makon, payt-zamon, holat-tarz, mikdor kabi umumlashma ma'nolarni ifodalash nafaqat ravishlarga xos, balki boshqa ST ham bunday imkoniyatga ega. Ma'noviy (semantik) belgi ravishlarni ajratuvchi omil bo'lolmaydi.

2. Ravish turkumiga oid so'zlar yordamchi so'zlardan farqli o'laroq har xil sintaktik modal munosabatlarni ifodalashga emas, balki so'zlovchi va tinglovchi ongida mavjud bo'lgan ayrim tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladigan gapda mustaqil urin (tobe o'rin) egallay oladigan so'zlardir. Ko'rinadiki, ravishlarning ma'no ifodasi ularning differensial (farqlovchi) belgisi emas, balki integral (birlashtiruvchi), ya'ni mazkur turkumni mustaqil so'zlar guruhiga kirituvchi belgisidir.

3. G'arbiy Yevropa tillari uchun xos bo'lgan omil, ya'ni so'zni ot yoki fe'l bilan birikib kelish tamoyili asosida farqlash turkiy tillar uchun xos emas. Bu tamoyilni turkiy tillar (o'zbek tili)ga nisbatan qo'llash bir so'zni ot, sifat va ravish kabi uch omoleksemaga ajratishga olib keladi. Ravish sintaktik imkoniyatiga ko'ra (aniqlovchi, hol, kesim bo'la olishi bilan) boshqa mustaqil so'zlar bilan umumiylik kasb etadi, biroq ega va to'ldiruvchi bo'la olmasligi bilan ulardan farqlanadi.

4. O'zbek tilshunosligida so'zlarning morfologik o'zgarishi (agglyutinatativ mohiyatga ko'ra) o'ta keng. Shu bilan birga, morfologik jihatdan mutlaqo o'zgarimas mustaqil ma'noli so'zlar guruhi ham mavjud. Mana shu guruhningina ravish sifatida belgilash ularning turkona tabiatini

ochishga va tasniflashga asos bo'ladi. Tabiiyki, bunday talqinda ravishning daraja, to'liq va qisqargan shakllari ham bo'lmaydi. Ravishni mustaqil so'zlarning alohida bir guruhi sifatida ajratishda faqatgina ularning o'zgarmasligi hamda yasaliş tizimiga tayanishimiz mumkin. Ravishning umumiy lisoniy mohiyatini quyidagicha belgilar majmuasi sifatida berish mumkin:

- mustaqil so'z turkumiga mansublik;
- shaklan o'zgarmaslik;
- gapda hol, sifatlovchi aniqlovchi, kesim vazifasida kela olish.

5. O'zgaruvchan so'z ba'zan o'zgarmas pozisiya (o'rin)da kela olsa-da, biroq o'zgarmas so'z (ravish) maxsus bir grammatik shakllarni talab qiluvchi pozisiyani egallay olmasligi bilan xarakterlanadi. Ba'zan ravishda bog'li qurshovdagina kuzatiladigan o'zgarishlar til sathi uchun me'yoriy hol bo'lmay, bu holat mazkur turkumning boshqa mustaqil ma'noli o'zgaruvchi so'zlar bilan uzviy aloqasi natijasi (analogiya ta'siri) sifatida qabul qilinishi lozim.

6. Til elementlari (qo'shimchalar)ning o'zak tarkibiga singib, ajralmas holga kelib qolishi (adverbializasiya) ravish so'zlar qatorida ko'plab kuzatiladi. Aksariyat ravishlar so'zshakl va birikmashakllarning tublashish (ixtisoslanish) natijasi o'laroq vujudga kelgan. Ravishning tarkibiga ko'ra turlari hamda bu turlarning voqyelanishida xizmat qiluvchi til birliklarini aniqlash mazkur so'z turkumining semantik-grammatik belgilarini ochib berishga xizmat qiladi. Tabiiyki, bunda ravishning yasaliş (derivasiya)ga munosabati ham yuzaga chiqadi.

7. Ravish murakkab yasaliş tizimiga ega bo'lib, ravish yasovchi deb talqin qilinayotgan ayrim shakllar o'z unumdorligini birmuncha yo'qotganligini kuzatsak, ayrim qo'shimchalar so'z (ravish) yasashning

unumli, sermahsul qo'shimchalari sirasidan o'rin egallaydi. Shuningdek, yasama ravishda pleonastik, okkazional qo'llanishlar ham ko'p kuzatiladi.

8. Ravishning ma'noviy guruhlar, qo'llanishi, turli asoslardagi xususiyatlarini aniqlab, paradigmatic qatorlarga tuzish mazkur turkumni nazariy jihatdan o'rganish bilan ham bogliq ekanligi kuzatildi.

9. Ravishlar, odatda, so'z turkumlari tasnifidan "ortib qolgan" tarkiban behad xilma-xil bo'lgan "jonli qazilmalar"ga qiyoslanar ekan, bu so'z turkumining tarkibiy hamda semantik tasnifi boshka so'z turkumlari tabiatini ochish "kaliti" bo'lib xizmat qilishi mumkin.

10. Ravish va ravish bo'lmagan so'zlarning birlashtiruvchi hamda farqlovchi belgilarini muayyanlashtirish, bir paradigma (ma'lum bir guruh) bilan ikkinchi paradigma (ravish) munosabatini ko'rsatish, tadrijiy ta'sirini belgilash so'z turkumlari, jumladan, mazkur grammatik kategoriyaning "qorong'i nuqtalari"ni yoritishda qo'l keladi.

